

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘l yozma xuquqida

UDK 821.512.133(092)

NIYAZMETOVA SHAHLO ADAMBOYEVNA

**MAVZU: Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi tarokima”
asari leksik-grammatik xususiyatlari**

5A220102 -Lingvistika (o‘zbek tili)

**Filologiya magistri
akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

f.f.n Tillayeva M

URGANCH – 2013

MUNDARIJA

1. KIRISH.....	3
I BOB. ASAR TILINING LEKSIK XUSUSIYATLARI.....	9
1.1. Asar leksikasining ayrim xususiyatlari.....	9
1.2. Asarda qo‘llangan etnonimlar.....	19
1.3. Asarda o‘zlashmalarning qo‘llanilishi	25
II BOB. ASAR TILINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	33
2.1. Asar yaratilgan davr tilining umumiy morfologik xususiyatlari.....	33
2.2. Asar tilida ot va uning ichki kategoriyalari ifodalanishi.....	35
2.2.1. Grammatik son kategoriyasi.....	35
2.2.2. Egalik kategoriyasi	36
2.2.3. Kelishik kategoriyasi	37
III BOB. ASAR TILINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI.....	56
3.1. Shaxsi aniq gaplar	58
3.2. Shaxsi umumlashgan gaplar	59
3.3. Bir bosh bo‘lakli gaplarning shakl va mazmun xususiyatlari	63
Xulosa.....	73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	75

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati tufayli ijtimoiy hayotda yangicha o'zgarishlar yuzaga keldi. Jumladan, ilm-fan va milliy ma'naviyatimizni rivojlanishida katta yutuqlarga erishildi. Bu albatta o'zbek tilshunosligida mustaqillik davrida amalga oshirilgan ishlarga ham taalluqlidir. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli asarida shunday ta'kidlaydilar: "...o'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlool yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlanishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda"¹. Shu ma'noda tilimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutish bilan birga tilshunoslikka oid ko'plab ma'lumotlar jamlangan Abulg'ozii Bahodirxonning "Shajara-yi turk" asarining ilk bor lingvistik tahlilga tortilayotgani mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Mavzuning o'rganilish tarixi. Abulg'ozii Bahodirxon qariyb 20 yil (1644-1664) Xorazmni idora qilgan hukmdor. Lekin B.Ahmedov so'zi bilan aytganda, u "tarixda oliy hukmdor sifatida emas (tarixda jahonni titratgan ne-ne podsholar o'tmadi, lekin allaqachonlar ulardan nom-nishon qolmagan), balki yirik olim sifatida qoldi. Ilmning xosiyatidan shunday bo'ldi u. Darhaqiqat, Abulg'ozixon keng va chuqur ma'lumotli kishi edi"².

"Bu faqirg'a, – deb yozgan edi uning o'zi, – xudoy taolo inoyat qilib ko'p nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohigarlikniig qonuni va yo'sunikim, nechuk o'tlanmoq va yurumak va yovg'a yosoq yasamoq,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat. 2008. – B. 87.

² Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б.217.

ko'p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq, do'stg'a dushmang'a nechuk so'zlashmaq. Ikkinchi, masnaviyyot va qasoid va g'azaliyot va muqatta'ot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahdindin to bu damg'acha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo'g'ulistonda o'tgan podshohlarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam yoki ziyodin bilmaklik"¹.

Abulg'ozi Bahodirxon 15-rabi'alavval 1012-hijriy (12-avgust 1603-yil) Urganchda dunyoga kelgan. Vafoti ramazon oyi 1074-hijriy (mart 1664-yil). U Xiva xoni Arab Muhammadxon (hukmronligi 1602-1623)ning to'rtinchi o'g'li edi. Lekin uning hayoti xonzodalarnikiday tinch-totuvlik, osudalik, yemak-ichmakdan mo'l-ko'l bo'lib kechmadi. Abulg'ozi olti yoshida onasidan (Mehribonu xonim; shayboniy Yodgorxon avlodi bo'lmish Jong'ozi sultonning qizi edi) yetim qoldi, 13 yoshida toj-u taxt uchun boshlangan o'zaro kurashlar girdobiga tushdi. 1616-yili og'alari Habash sulton bilan Elbars sulton nayman va uyg'ur qabilalarining boshliqlariga tayanib (ularning onalari nayman qabilasiga mansub edi), otasiga qarshi isyon ko'tardilar. O'shanda Arab Muhammadxon, odatda ota-bola orasidagi muomalani andisha qilib, isyonkor o'g'illariga Vazir shahrini ham qo'shib berdi. Oradan besh yil o'tar-o'tmas oralari yana buzilib, nizo urushga aylandi. 1621-yilda Toshli yormish qudug'i yonida ikki orada: bir tarafda Arab Muhammadxon tung'ich o'g'li Isfandiyor sulton va Abulg'ozi sulton bilan, ikkinchi tomonda uning boshqa o'g'illari Habash sulton bilan Elbars sulton orasida urush bo'ladi. Oqibatda Arab Muhammadxon, Isfandiyor sulton va Abulg'ozi sultonlar mag'lubiyatga uchradilar. Asir olingan xonning (Arab Muhammadxonning) ko'zlariga mil tortildi va Xivaga olib keltirilib, qamab qo'yildi. Ko'p o'tmay u shu yerda qatl etildi. Urushdan keyin Abulg'ozixon avval Kotga, so'ngra Buxoroga, ashtarxoniylardan Imomqulixon (1611-1642) huzuriga qochib bordi. Arab Muhammadxonning boshqa o'g'illari: Isfandiyor

¹ Абулғозий. Шажарайи турк (электрон нусхаси). – Б. 8-9.

sulton, Sharif Muhammad sulton va Xorazmshoh sulton Hazoraspga bordilar, uning mustahkam qal'asi ichiga kirib yashirindilar. Habash bilan Elbars qirq kunlik qamaldan keyin og'asi Isfandiyor, inilari Sharif Muhammad va Xorazmshoh sultonlar bilan yarashib, Isfandiyorga Makka ziyoratiga ketishga ijozat berdi, Sharif Muhammad sultonga Kotni in'om qildi, o'n ikki yoshli Xorazmshoh sulton bilan o'n yoshli Afg'on sultonni Xivaga jo'natdi. Lekin Isfandiyorxon Makkaga bormadi, u to'ppa-tug'ri Isfahonga, shoh Abbos I (1587-1629) huzuriga bordi va uning yordami bilan 1623-yili Xiva taxtini egalladi. Abulg'ozixon bundan xabar topib, usha yiliyoq Xorazmga qaytib bordi. Isfandiyorxon unga Urganchni in'om qildi. Lekin oradan to'rt yil o'tib, 1627-yili xon bilan oralari buzilib, Turkistonga, Eshimxon (1629-yili vafot etgan) huzuriga qochib bordi. Ko'p o'tmay uni Tursunxon Toshkentga olib ketadi. U Toshkentda ikki yil istiqomat qildi va Tursunxonning o'limidan keyin, 1630-yili yana Buxoroga, Imomqulixon huzuriga bordi. Lenin bu gal u Buxoroda ko'p qolmadi. O'sha yili xondan norozi bo'lgan xivalik turkmanlarning chaqirig'i bilan yana Xorazmga qaytib bordi. Isfandiyorxon (u o'sha vaqtda Hazoraspda turardi) ikki oy davom etgan bordi-keldidan keyin unga Xivani topshirishga majbur bo'ldi. Oradan olti oy o'tgach, Isfandiyor uni o'sha vaqtlarda Eron podshosi tasarrufiga tushib qolgan Niso bilan Darunga (Ashxobod bilan Qizil ravot o'rtasida joylashgan manzilgoh) bosqin qilishda ayblab hibsga oldi va Eronga, shoh Safi I (1629-1642) huzuriga garov sifatida jo'natib yubordi. Abulg'ozixon Eronda qariyb 10 yil (1630-1639) maxsus nazoratchilar qo'l ostida Isfahonga yaqin joylashgan Taborak qal'asida yashadi. 1639-yili yoz kunlaridan birida u tutqulikdan qochib qutilishga muvaffaq bo'ladi. Ko'p mashaqqatlar chekib, ikki yarim yil deganda, 1642-yili Orol o'zbeklari orasiga kelib tushadi. Orollik o'zbeklar 1643-yili Abulg'ozixonni xon qilib ko'tardilar. Oradan bir yil o'tgach, 1644-yili u ko'pchilik raqiblarini yengib, Xorazm taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi.

Abulg'ozixon hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik taxtida o'tirdi. Lekin umri ko'proq urush-talashlarda o'tdi: 1646-1653-yillari u Tajan, Bomi baurma (Qizil ravotning janubi-sharqiy tarafida joylashgan manzilgoh), Atrok va Jurjon

turkmanlari bilan urush olib bordi, 1655-1662-yillari o'lkaga vaqt-vaqti bilan boqin qilib turgan yoyiqlik o'ris qozoqlari, qalmiqlar va qozoq ko'chmanchilari bilan kurash olib bordi, 1663-1664-yillari bir necha marta Buxoro ustiga yurish qiladi. 1664-yili Abulg'ozixon og'ir dardga chalinadi. Toj-u taxtni esa o'g'li Anushaxon (1664-1674)ga topshirdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1664-yilning aprel oyida dunyodan o'tdi. Abulg'ozixon hammasi bo'lib 60 yil-u yetti oy umr ko'rgan.

Abulg'ozixonidan ikki tarixiy asar qolgan. Biri "Shajarayi tarokima" (1658 – 1661-yillar orasida yozilgan deb taxmin qilinadi) deb atalib, turkiy, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Asarda barcha turklarning afsonaviy podshosi O'g'uzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek, turkman urug'lari (solur, bayondur, taka, yovmut, tevachi, Xizr eli, sariq, Ali eli, yozir, ersori va boshqalar)ning kelib chiqishi qichqa tarzda bayon etilgan. "Shajara-yi tarokima", Abulg'ozixonning o'z so'zlariga qaraganda, turkman mullalari, shayxlari va beklariniig iltimosi bilan yozilgan. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasi, katta ilmiy tadqiqot bilan birga, 1958-yili A.N.Kononov (1906-1986) tarafidan Sankt-Peterburgda chop etilgan¹. Olimning ushbu asariga oid dastlabki tadqiqotlar A.N.Samaylovich², E.Kal³, A.G.Tumanskiy⁴, V.V.Bartold⁵lar qalamiga mansub. Mazkur asarning dunyo xazinalarida bizga yettita nusxasi ma'lum. Ulardan ikkitasi Rossiyada⁶ va qolgan beshta nusxasi Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Ular turli vaqtlarda ko'chirilgan bo'lib, faqat ikkitasida kotiblarning nomi yozilgan. Bulardan biri Mirzo Amon ibn Eson Xuzoriy bo'lib, nusxani rajab oyi 1341-yili (17-fevral – 19-mart 1923-yili) Buxoroda ko'chirgan

¹ Кононов Л. П. Родословный туркмен, сочинение Абу-л-Гази, хана хивинского. -М.-Л., 1958.

² Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа туркменского» Абульгази-хана // ДАН-В. 1927. – С. 39-42; Его же. По поводу издания Н.П.Остроумовым «Светоч ислама» // ЗВОРАО, XVIII. – С.2-4.

³ Каль Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной библиотеки. – Ташкент, 1889. – С. 52. – № 801.

⁴ Туманский А.Г. Абуль-Гази-Бохадур-хан, Родословная туркмен, Ашхабад, 1897 (по ташкентской рукописи). Шажарайи Тарокима. – Истанбул. 1937;

⁵ Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа. // Туркмения. Л., 1929. – С. 36. – Сочинения. Т. II. Ч.1. – С. 584-594; Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 2. 1938. – С. 28-38.

⁶ Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. I. История. / Род ред. А.Н. Кононова. – Москва: Наука. 1965. – С. 92-94.

(nusxa raqami 1223). Ikkinchi kotib Muhammadsharifxo‘ja Muhammad o‘g‘li Mullo Boqijon Rahmon o‘g‘li iltimosi bilan rabi‘al-avval 1344-hijriy (19-sentyabr – 19-oktyabr 1925-yili) ko‘chirgani ma‘lum bo‘ladi (№ 1807)¹.

Abulg‘ozixonning ikkinchi asari “Shajara-yi turk” xususida ham qator e‘tiborli tadqiqotlar amalga oshirilgan². Tilshunosligimizda “Shajara-yi turk”ning lisoniy xususiyatlari haqida Q.Karimov³, X.Boboniyozov, M.Turdiybekov⁴, N.Mamadaliyeva⁵lar tomonidan ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, “Shajara-yi tarokima” maxsus o‘rganilmagan. Shuning uchun bu asarning lisoniy xususiyatlarini tilshunosligimizda erishilgan keyingi yutuqlar asosida ochib berish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- “Shajarayi tarokima” asari til xususiyatlari ilk bor monografik tarzda o‘rganilgani;
- asarning leksik xususiyatlari tahlil qilingani;
- undagi o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub so‘zlar xususidagi kuzatishlar olib borilgani;
- asarning morfologik xususiyatlari ochib berilgani, bu jihatdan asar tili eski o‘zbek tilida yozilgan boshqa ayrim yozma yodgorliklar morfologiyasiga qiyoslangani;

¹ Собрание восточных Рукописей АН Республики Узбекистан (СВР). История. / Составители: Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 152-154.

² Собрание восточных Рукописей АН Республики Узбекистан (СВР). История. / Составители: Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 154-155; Ахмедов Б. Историко-географическая литература. – С. 72-78; Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Б. 217-223; Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. I. История. – С. 93-94; Лекции И.Н.Березина, записанные студентом В.Игнатиевым в 1866 г., 4-я лекция. / Архив востоковедов ЛО ИНА АН СССР, разряд III, опись I. – № 31. // Ученых записках ИВ АН СССР. VI, 1953. – С. 41; Pertsch W. Die Handschriften-Verzeichnisse der königlichen Bibliothek zu Berlin. Bd.VI. Verzeichniss der türkischen Handschriften, Berlin. 1889. B. 228. №204; Rieu Ch. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. London. 1888. 282a; Blochet E. Catalogue des manuscrits turcs de la bibliothèque Nationale de Paris. T. I. Paris. 1932. 232. №141; Таржималари: Desmaisons P. Aboul-Ghâzi Bêhâdour-Khan. Histoire de Mogols et de Tatares..., St.-Pbg. I, 1871 (матни). II. 1874 (таржима); Абулгази. Шаджарайи турк. Перевод Тредьяковского. (Казань) 1770; Родословное древо тюрков. Сочинение Абуль-Гази хана хивинского. Перевод и предисловие Г.С.Саблукова. Казань, 1906.

³ Каримов Қ. Абулғозининг тилга оид баъзи қайدلари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. №4. – Б.53-56.

⁴ Турдибеков М. “Шажарайи турк” тилидаги баъзи гидронимларга доир мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. №5. –Б.50-54. Турдибеков М. Абулғозий Баходирхоннинг “Шажарайи турк” асаридаги баъзи ойконимлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1997. №2. – Б.63-66.

⁵ Мамадалиева Н. “Шажарайи турк”даги **бош** ва **яхши** сўзларининг маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002. №2. – Б. 49-53.

- asar tili xususida umumiy xulosalar bayon qilingani bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari

- asarning leksik xususiyatlarini tahlil qilish va xulosalarni umumlashtirish;
- undagi o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub so‘zlar xususidagi kuzatishlar olib borish, bu borada muarrixning o‘z tamoyili asosida ish ko‘rishini ko‘rsatib berish;
- asarning morfologik xususiyatlari ochib berish, bu jihatdan asar tilini eski o‘zbek tilida yozilgan boshqa ayrim yozma yodgorliklar morfologiyasiga qiyoslash;
- asar tili xususida umumiy xulosalar bayon qilishdan iborat.

Ishning tadqiqot metodlari. Yurtboshimiz I.A.Karimovning tarixiy qadriyatlarimizga bo‘lgan chuqur hurmat va ehtirom, milliy merosimizdan faxrlanish g‘oyasi tadqiqotimiz uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Kuzatishda qo‘llaniladigan tahlil metodlari hamda tadqiq usullari bugungi mustaqillik davri ijtimoiy-gumanitar fanlar oldiga qo‘yilgan talablardan kelib chiqib belgilandi.

I BOB. ASAR TILINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

I.1. Asar leksikasining ayrim xususiyatlari. Abulg‘oziy o‘z badiiy asarlarida ona tili boyliklaridan ustalik bilan foydalandi. Muarrix ijodiy merosida o‘zbek adabiy tilining Xorazm lahjasi boyliklaridan unumli foydalandi¹. XIV asr Xorazm yodgorliklari ustida maxsus tadqiqot olib borgan turkolog E.Fozilov Xorazm yodgorliklarining dialekti asoslari to‘g‘risida fikr bildirib, ularda o‘g‘uz, qipchoq, bulg‘or, uyg‘ur unsurlarining sinonimik qo‘llanilishini ta’kidlaydi hamda P.M.Milioranskiyning “dialektal rang-baranglik” haqidagi fikriga to‘la qo‘shiladi. Abulg‘ozi asarlari tilida ham eski o‘zbek adabiy til an‘anasi davom etgan, yuksak darajada takomillashgan. Chunki har bir ijodkor o‘z ilmiy, ijodiy fikr doirasini boyitishda Sharqqa mashhur XI-XIV asrlar va undan keyingi eski turkiy, eski o‘zbek adabiy tili asarlarini mutolaa qilmasdan, badiiy mahorat sirlarini Alisher Navoiydek ulkan ijodkorlardan o‘rganmasdan, ulardan bahra olmasdan ijodkor bo‘lish mumkin emas edi. Abulg‘ozi asarlari jonli xalq tili asosida yaratilgan, unda, haqiqatan, xalqchillik ruhi bilan sug‘orilgan Alisher Navoiy ijodi ta’sirini ko‘ramiz. Abulg‘ozi badiiy til boyliklaridan mahorat bilan foydalandi. To‘la ma’noda Abulg‘ozi asarlari tili o‘zbek adabiy tilining Xorazm lahjasidagi butun boyliklarni o‘zida aks ettirgan. Masalan, *bor – yuk; bum – boyqush; do‘g’– ayron, qatig’; yov – anhor, katta ariq; yovuq – yaqin; yorg‘uchoq – qo‘l tegirmon; butroq – balchiq; botqoqlik; buratmoq – tarqatmoq, to‘zitmoq; dag‘o – aldov, hiyla; javlaha – bo‘zchi, to‘quvchi; kish – terisi po‘stin yoqasi va telpakka ishlatiladigan qora tusli hayvon; raz – tok, uzum; tarong‘u// to‘rong‘i – yovvoyi daraxtning bir turi; tik – olmaxon terisidan qilingan po‘stin; tih – sahro, dasht; tuynog’– tuyoq; qirbon – o‘qdon; qoqim – oq susar terisidan qilingan po‘stin; qumosh – to‘qima mato; g‘urob – qarg‘a, quzg‘un; bijaq – buzoq; dalq – darveshlar kiyimi; joysh – askar, qo‘shin; kulux – kesak; oj – fil suyagi, ovon – onlar, kunlar; to‘sha – yo‘l ozig‘i; taponcha – tarsaki, shapaloq;*

¹ Фозилов Э.И. XIV аср Хоразм ёдноmalari. – Тошкент, 1973.

g'o'z – yong'oq; g'ariv – qichqiriq; g'uruv – quyoshning botishi; yumruq – musht; uy – ho'kiz; g'ulak – yumaloq narsa; cho'mcha – cho'mich qoshiq; cholmoq – bog'lamoq, taqmoq, kesmoq, uzmoq va boshqalar.

Shuningdek, uning asarlarida *a* o'rnida *o* (*oning*), *-ga* jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-g'a* (*o'tig'a, zotig'a*) singari Xorazm shevasiga xos fonetik farqlar ham saqlangan.

Abulg'ozi asarlari tilida ishlatilgan leksemalarga nazar tashlansa, unda Xorazm shevalariga oid so'zlarning borligi bilan birga qadimgi turkiy tilga oid bir qator so'zlarning ham o'rinli ishlatilganligini ko'rish mumkin. Muarrir asarlarida qadimgi turkiy so'zlar, ayniqsa, turkiy tillarning VI-VII asrlarga oid yozma bitiklarida qo'llangan so'zlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunonchi O'rxun-Enasoy bitiklari tilida uchrovchi so'zlarning Abulg'ozi asarlarida asliday hamda fonetik o'zgargan holda qo'llanganligini turli soha leksemalari sifatida uchratish mumkin:

- a) qarindoshlik, yaqinlik anglatuvchi so'zlar: *ata* (ota), *er* (er), *ini* (uka), *obo* (otalar);
- b) inson organizmi va uning muchallarini anglatuvchi so'zlar: *adoq* // *addoq* (oyoq), *bash* (bosh), *qolg'aq* (quloq), *sungak* (suyak), *yanaq* (yuz);
- d) rang bildiruvchi so'zlar: *aq* (oq), *bo'z* (bo'z), *yasho'l* (yashil), *qara* (qora);
- e) harakat, holat va nutq fe'llari: *yo'liq* (uchramoq, ro'para bo'lmoq), *sebin* (sevinmoq), *esir* (havolanmoq) kabi.

Abulg'ozi asarlarida qo'llangan aksariyat turkiy so'zlar qadimgi turkiy til bitiklarida aynan borligi, ijodkor yashagan davr adabiy tili uchun ham mushtarakligining asosiy sababi turkiy tillarning aslida bir manbaga, bir genetik asosga aloqador ekanligi, ularning lug'at fondi qadimdan bir o'zakka egaligidan dalolatdir. Eng muhimi davri o'z davri til siyosatida ham keskinlik hukm surayotgan bir paytda adabiy tilni ona tili manbai asosida boyitishga unitilgan, qadimgi turkiy til leksik unsurlarini kitobiy tilga olib kirishga muvaffaq bo'lgan.

Umumturkiy, jumladan eski o'zbek tili leksikasi ma'lum rivojlanish, o'zgarish va adabiy til sifatida shakllanish bosqichlarini boshidan kechirdi. Adabiy til

leksikasini turli davrlar, xususan, Abulgʻoziy asatlari tili bilan qiyoslaganda, oʻziga xos oʻzgachaliklar borligi ayon boʻladi.

Muarrixning mazkur asari leksik xususiyatlarini nisbatan toʻla tasavvur qilish uchun tajriba misolida quyidagi parchani tanladik va undagi soʻzlarni lingvostastik, ayrim oʻrinlarda tarixiy-etimologik nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qildik. Tahlil natijalari quyidagicha ayon boʻldi:

“Tangri bizga berdi. Avvaldin to oxirgʻacha biz sababli yaxshi va yomondin yigirma ming choqlik kishilari oʻldi, aning ichinda gunohkorlari ham bor erdi va begunohlari ham bor erdi. Paygʻambar aytib tururlarkim, qola-n-nabiyyu alayhissalom “adxalassururi fi qalbia moʻminni xayr min ibodati-s-saqalini” maʼnisi bu turur kim agar bir kishi bir musulmon kishining koʻnglini xushhol qilsa, aning savobi barcha Odam farzandlarining va jinlarning tangriga bandalik qilgʻan savobindin koʻp turur. Bas necha ming kishilar mening bu soʻz aytqaningʻa bilmaganlarin bilib koʻngillari xush boʻlaturur. Xudoyi taolodin umidim borki, muning savobi agar ul qatliomda gunoh boʻlgʻan boʻlsa, angʻa gʻolib kelgay teb va taqi ul kim bir kun bir kishi bu kitobni oʻqub bilmaganini bilsa, bizning ruhimizga fotiha oʻqugʻay teduk taqi kitobni ayتماققا rujuʻ qilduq taqi bu kitobgʻa «Shajarayi tarokima» teb ot qoʻyduq. Barcha bilingkim, bizdin burun turkiy tarix aytqanlar arabiy lugʻatlarni qoʻshub tururlar va forsiyni ham qoʻshub tururlar va turkiyni ham sajʻ qilib tururlar, oʻzlarining hunarlarin va ustodliqlarini xalqgʻa maʼlum qilmaq uchun biz munlarning hech qaysisini qilmaduk, aning uchun kim, bu kitobni oʻqugʻuchi va tinglagʻuchi albatta turk boʻlgʻusi turur. Bas, turklarga turkona aytmak (aytmoq) kerak, to ularning barchasi fahm qilgʻaylar bizning aytgʻan soʻzimizni bilmasalar andin ne hosil agar anlarng ichlarida bir va yo ikki oʻqugʻan aql kishi boʻlsa ul bilsa, bilmagan koʻpning qaysi birina aytib bildurur. Bas, andaq ayتماق kerakkim, yaxshi va yomon barchalari bilib koʻngillariga maʼqul boʻlgʻay. Emdi Odamdin to bu vaqtgʻacha kim tarix mingda etmish birda turur turkmanlarning va soʻng turkman otin koʻtarib, turkmanga qoʻshilgʻan ellarning ancha bilganimizni bir-bir aytaling, bilmaganimizga iloj ne.

Odam alayhissalomning zikri

Xudoyi taolo farishtalarga aytdikim, turpaqdin kishi yasab, jon berib, er yuzinda o'z o'rnumg'a xalifa qilib qo'ya tururmen tedi ersa, farishtalar aytdilar: anlar yuqorig'i to'shak birlan quyig'i to'shakni zabt qila bilmaslar. Ul sababdin senga osiy bo'lurlar, yaratg'aning o'la turur tedilar. Xudoyi taolo aytdi: men bilganni sizlar bilmassizlar, boringlar! Turpaqdin bir kishining suratin yasanglar tedi. Azroil alayhissalom xudoyning amri birlan barcha yer yuzingdagi har turpaqdin olib, Makkayi Muazzama birlan Toifning orasinda turpaqni balchiq qilib, Odamning suratini yasab yotg'uzdilar, bir necha yillar o'tgandin so'ng Xudoyi taolo anga jon berdi va ming yil dunyoda turdi. Odam demaklik arab tili turur, arab terini odam der, har nimarsaning toshini teri derlar, farishtalar turpaqni yerni qazib, ichindin olmadilar toshindin olib, Odamning suratini yasadilar, aning uchun odam tedilar anlarning behishtg'a borg'anlari va andin chiqqanlari va er yuzinda yurganlarining hikoyatlari xalq ichinda mashhur turur, aning uchun aytmaduq. Odam o'lar bo'ldi ersa, Shis otli o'g'liga aytdi kim, mendin so'ng, sen mening o'rno'mg'a o'lturub o'g'lonlarimg'a bosh bo'lg'il, teb ko'p nasihatlar qildi. Bu dunyodin ul dunyog'a ketdi. Andin so'ng Jabroil alayhissalom Xudoyi taolodin Shisga kitob olib keldi. Shis ham payg'ambar va ham podshoh bo'lub, elga adolat qilib, to'quz yuz o'n ikki yil bu dunyoda turub, jannat saroyig'a ketdi. Shisning ma'nisi Xudoyning haybati demak bo'lur. Shis o'lar vaqtida o'g'li Anushni o'rninda o'lturtub ketdi. Anush taqi otasi va ulug'otasining shari'atig'a amal qilib ul taqi otasitekk to'qquz yuz o'n ikki yil bu manzilda o'turub, ul manzilga ketdi. Anushning ma'nisi sodiq temak bo'lur. Anush taqi o'larinda o'g'li Qaynanni o'rninda o'lturtub, ko'p nasihat va vasiyat qildi. Ul taqi sekiz yuz qirq yil otasi yurgan yo'lda turub, o'g'li Maxloyilni o'z erinda o'lturtub, Tangri yaqinig'a ketdi. Maxloyil zamoninda Odam farzandi ko'p bo'ldi, o'lturg'an yerga sig'ishmadilar, ul sababdin Maxloyil Bobil iqlimiga borib bir shahar soldi, otini Sus qo'ydi va tom, ev soldi va kendlar qildurdi, andin ilgari shahar va kend va ev yo'q erdi, tog'larning qavoqinda va yo changalda o'lturur erdilar, xalqg'a hukm qildi, yer yuziga yoyiling teb, barcha Odam farzandlari Maxloyilniig amri birlan

borib, har qayda munosib yer bo'lsa, kendlar soldilar. Maxloyil to'quz yuz yigirma yil so'zlayturg'an shaharda turub, o'g'li Bardni o'z erinda o'lturtub, dam urmas shahriga ketdi. Bard taqi to'quz yuz oltmish yil bu yurtida o'lturub, o'g'li Axnuni ortinda qo'yub ko'chmas va qo'nmas yurtg'a ketdi, o'g'lining oti Axnux erdi va laqabi Idris. Xudoyi taolo ani payg'ambar qildi, sakson ikki yil paygambarliq qildi, xalqni to'g'ri yo'lga unladi, andin so'ng Tangrining amri birlan Azroyil kelib Idris alayhissalomni parning ustida qo'yub, behishtga olib bordi. Ul kundan to bu vaqtg'acha behishtda turur. Idris behishtga borgandin so'ng o'g'li Matushalax otasi o'rinida o'lturdi, dod va adl qildi, umrinning soni ma'lum ermas, ul taqi otasi bargan yerga bordi, andin so'ng Matushalaxning o'g'li Limak otasi erinda o'lturub, ko'p yillar dod va adl qildi taqi otasi ketgan yo'lg'a tushub ketdi, aning ham umri ma'lum ermas, andin so'ng o'g'li Nuh payg'ambar otasi o'rnida o'lturdi. Xudoy taolo ikki yuz ellik yoshig'a etganda payg'ambarlik berdi, etti yuz yil xalqni to'g'ri yo'lg'a undadi, er va xotundin saksan kishi imon kelturdilar, etti yuz yilning ichinda saksandin ortuq kishi imon kelturmaganiga achig'lanib xalqg'a duoi bad qildi. Jabroyil keldi taqi aytdikim, Xudoy taolo sening duongni qabul qildi, falon vaqtda xalqni suvg'a g'arq qilur bo'ldi, sen kema yasag'il teb, kemani nechik yasarin ko'rsatdi, yerdin suv chiqdi, osmondin yomg'ur yog'di yer yuzindagi jonlining barchasi g'arq bo'ldi. Nuh payg'ambar uch o'g'li va imon kelturg'an saksan kishi birlan kemaga mindi, bir necha oydin so'ng yer Xudoy taoloning amri birlan suvni o'ziga tortdi, kema Mo'sul tegan shaharning taqi yaqinida Judi tegan tog'din chiqdi, kemadin chiqqan kishilarning barchasi bemor bo'ldilar, Nuh payg'ambar uch o'g'li va uch kelini birlan yaxshi bo'ldilar, andin o'zga kishilarning barchasi o'ldilar, andin so'ng Nuh payg'ambar uch o'g'lining har qaysisin bir yerga yibordi".

"Adxalassururi fi qalbia mo'minni xayr min ibodati-s-saqalini" (1) – iqtibos.

Mazmuni: "Bir mo'minning ko'nglini shod qilish odamlar va jinlarning ibodatidan yaxshiroqdir".

"Shajarayi tarokima" –arabcha *shajar* va *turkman* etnonimining arabiy siniq ko'plik shaklining forsiy izofaga kirish holati. Aynan: "Turkmanlar shajarasi".

Achig‘lanib (1) – turkiy.

Adl (2) – arabcha, adolat.

Adolat (1) – arabcha.

Agar (3) – forscha, shart bog‘lovchisi.

Alayhissalom (3) – arabiy birikma. Payg‘ambarlar nomidan keyin kelib, “unga salom bo‘lsin” ma’nosini anglatadi.

Albatta (1) – arabcha, yordamchi so‘z.

Amal (1) – arabcha, aynan ish ma’nosini anglatga ham, keyinchalik o‘zbek tilida uning ko‘plab qo‘shimcha ma’ngo semalari hosil bo‘lgan.

Amri (4) – arabcha so‘zga o‘zbekcha egalik qo‘shimchasining qo‘shilishi.

Ancha (1) – turkiy, ko‘rsatish olmoshi.

Andaq (1) – turkiy, ko‘rsatish olmoshi.

Andin (9) – turkiy, ko‘rsatish olmoshi.

Ang‘a (2) – turkiy, ko‘rsatish olmoshi.

Ani (1) – turkiy, ko‘rsatish olmoshi.

Aning (6) – turkiy, ko‘rsatish olmoshi.

Anlar (1) – turkiy, kishilik olmoshi. III shaxs ko‘pligi alar ishlatilgan. Bu kishilik olmoshi ham yakka shaxsga nisbatan qo‘llanganda hurmat ma’nosini anglatadi: Mashoyixning javonmardlaridin erdi va alarning saxiyrog‘i (Alisher Navoiy); mening otam hech jonvorni o‘lturmas erdi va bu abdol mazhabidur. Va alar abdoldin erdilar... (Alisher Navoiy).

Anlarning (1) – turkiy, kishilik olmoshi.

Anush (turli shakllarda 4) – atoqli ot.

Aql (1) – arabcha, hozirgi o‘zbek tilidagi ma’nolarda.

Arab (1) – arabcha, etnonim.

Arabiy (2) – arabcha, nisbiy sifat.

Avvaldin (1) – arabcha asosga o‘zbekcha qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan payt ravishi. Sinxron jihatdan bo‘linmas birlik. Boyish manbasi – ichki manba.

Axnun (2) – atoqli ot.

Ayt – (turli shakllarda 15) – turkiy. Hozirgi o‘zbek tilidagidan farqli ravishda “yozmoq”, “ijod qilmoq” ma’nolari ham keng qo‘llanilgan. Esik o‘zbek tilida u nutq fe‘lidan tashqari tafakkur fe‘li vazifasini ham bajargan.

Azroil (1) – atoqli ot. Farishta nomi.

Bad (1) – forscha, yomon.

Balchiq (1) – turkiy. Eski o‘zbek tilidan loy tushunchasining umumiy nomi. Uning *bal* qismining “loy” ma’nosini bergan. Keyinchalik “devor” ma’nosini kasb etgan. Shuning uchun bu komponent Xonbaliq, Beshbaliq kabi shahar nomlari tarkibida bor.

Bandalik (1) – forsiy asosga o‘zbekcha qo‘shimcha qo‘shib so‘z yasalgan. Ichki manba.

Barcha (turli shakllarda 9) – turkiy, belgilash olmoshi.

Bard (turli shakllarda 2) – arabcha, sovuq.

Bargan – turkiy.

Bas (3) – forsiy, yordamchi so‘z.

Bil- (turli shakllarda 16) – turkiy bilmoq fe‘li.

Bir – (turli shakllarda 14) – turkiy, tartib son. Asarda uning ayrim ma’nolari ham ko‘zga tashlanadi.

Birlan (8) – turkiy, yordamchi so‘z.

Biz (turli shakllarda 5) – Biz olmoshi birinchi shaxsning ko‘pligini ifodalaydi. Mazkur olmosh eski o‘zek tilida ham hozirgidek kamtarlik, gap mazmunidan o‘zini ulug‘sirash ma’nosini berishi ma’lum. Tadqiq qilinayotgan yodgorliklarda hurmatli, mo‘tabar zotlar, dindorlar va ulamolar ko‘rincha o‘zlariga nisbatan biz olmoshini qo‘llaganlar. Haqiqatan ham, asarda biz olmoshining birlikni ifodalagan holatlarida ko‘proq kamtarlik, o‘zini haqir olish mazmunida qo‘llanilganini ko‘ramiz: Bir kun Muhammad bin Yusuf ul do‘stdin so‘rdikim, oyo, kimdurki, bizning boramizda bu ehson qiladur? (“Nasoyim”). Ba‘zan biz olmoshi ko‘plikni ifodalayotganini ta’kidlash uchun unga -lar affiksi qo‘shilgan.

Bo‘l- (turli shakllarda 18) – turkiy, holat fe‘li. Ko‘plab qo‘shma fe‘llarning tarkibiy qismi.

Bobil (1) – joy nomi.

Bor I (2) – turkiy, modal soʻz.

Bor- II (turli shakllarda 9) – turkiy, *bormoq* feʼli.

Bosh (1) – turkiy.

Bu (11) – turkiy, koʻrsatish olmoshi.

Burun (1) – turkiy, payt ravishi.

Begunoh (1) – forsiy, old yasovchi qoʻshimcha orqali shakllangan.

Behisht (turli shakllarda 4) – forsiy. Jannat tushunchasini anglatuvchi behisht soʻzining tarixiy ildizlariga nazar salsak, uning “Avesto”da *vahishta* shaklida ishlatilgan va *vohu* – yaxshi, *nek* va *isht* – kichraytirish, erkalash qoʻshimchalaridan tarkib topganini koʻramiz. Aslida bu soʻz dastlab *vahishta* anghu shaklida boʻlgan boʻlib, uning anghu qismi “*olam*”, “*jahon*” maʼnolarini beradi. Pahlaviy tilida bu soʻz keyinchlik aniqlanmishi qisqargan holda *vahisht* shaklida qoʻllanilgan. Demak, *vahishta* anghu aynan “eng yaxshi joy” maʼnosini beradi va uning aniqlanmish qismi qisqarishi, yaʼni fors tilida *beh* shaklini olgan. *Vahining* lugʻaviy maʼnosi unutilishi va sifatning otga koʻchish holati otlashish hodisasi bilan izohlanadi.

Bemor (1) – forsiy.

Ber- (turli shakllarda 4) – turkiy, *tub* feʼl.

Changal (1) – forsiy. Nashrda notoʻgʻri ravishda shunday oʻqilgan. Aslida *jangal* – oʻrmon.

Chiq- (turli shakllarda 4) – turkiy, feʼl.

Dam (1) – forsiy, hordiq.

Dod (2) – Mazkur parchadagi *dod* qadimgi eroniyda *daita* shaklida uchrovchi “qonun” maʼnosidagi soʻzdir.

Dunyo (turli shakllarda 4) – arabcha, dunyo.

Duo (turli shakllarda 2) – arabcha.

Demak (1) – shu turkiy feʼlning harakat nomi shakli.

Demaklik (1) – shu turkiy feʼlning harakat nomiga maʼnoni kuchaytiruvchi shakl yasovchi qoʻshilgan koʻrinishi.

De- (turli shakllarda 2) – turkiy nutq fe’li.

El (turli shakllarda 2) – Elchi soʻzining “el” va “-chi” qismlaridan tarkib topgani sinxron aspektda koʻrinib tursa ham, uning tarkibida *el* soʻzining semantikasiga eʼtibor qaratish zarur. “Attuhfa”da elchi *paygʻambar* va *rasul* deb izohlanadi¹. Bu oʻrinda “paygʻambar”, “rasul” soʻzlarini ham diplomatikaga oid soʻz sifatida, ham diniy tushuncha ifodalovchi soʻz sifatida tushunish mumkin. Shu manbaning oʻzida *el* – “tinchlik” maʼnosini anglatishi qayd etiladi². Elchi soʻzining asosida ushbu maʼno mavjudligi shubhasiz. “Attuhfa”da bu soʻzning el va kun tarkibida “olam” maʼnosini berishi aytiladi. S.Mutallibov izohicha, “kun” soʻzini tashlab, faqat *el* – *quyosh*ning oʻzinigina qoʻllash ham olam maʼnosini anglatadi³. Bu soʻzning omonimi ham mavjud boʻlib, “qoʻl”, “kaft” maʼnosini anglatadi⁴. Bu soʻz hozir Janubiy Xorazm shevalarida “al” shaklida ishlatiladi⁵. Navoiy asarlari tilida ushbu omonim soʻzlarning ikkalasi ham boʻlib, jumladan, quyidagi baytda har ikki maʼno asosida ham iyyom sanʼatining, takrorda alohida maʼnolar nazarda tutilishi orqali tajnisning goʻzal namunasi yaratilgan:

Ani sindurgʻon elni qil shikasta,

Xujasta koʻrgan elga tut xujasta⁶.

Badriddin Ibrohim tomonidan XIV asrda Hindistonda tartib berilgan “Farhangi Zafargoʻyo”da el “viloyat” maʼnosida ham izohlangan. Bu soʻz urxun-enasoy va qadimgi uygʻur yodnomalarida “urugʻittifoqi”; “xalq” maʼnolarini anglatadi. Uning koʻplik shakli – *elat*dan maʼmuriy birlik ifodasi boʻlgan soʻz hosil boʻlgan⁷.

Ellik (1) – turkiy, son.

Emdi (1) – turkiy, payt ravishi.

Er (1) – turkiy, erkak soʻzining asl koʻrinishi.

Er (turli shakllarda 9) – turkiy, emoq toʻliqsiz feʼlining qadimiy koʻrinishi.

¹ Attuxfatuz zakiyatu filluʻgʻatit turkiya. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. – Toshkent: Fan, 1968. – B.59.

² Kўrsatilgan asar. – B.77.

³ Kўrsatilgan asar. – B. 84.

⁴ Kўrsatilgan asar. – B. 105.

⁵ Мадрахимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999. – Б. 46.

⁶ Алишер Навоий. Мукаммад асарлар тўплами. 20 томлик. 8-том. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 8.

⁷ Наджиб Э. Тюркский язык делийского солтана XIV века // Советская тюркология. – 1982. – №2. – С.86.

Ev (2) – turkiy, uy.

Et- (turli shakllarda 3) – turkiy fe'l.

Fahm (1) – arabcha. Bugungi tilimizdagi ma'nosida.

Falon (1) – arabcha. Eski o'zbek tiliga o'zlashgan gumon olmoshi.

Farishta (turli shakllarda 3) – forsiy. *Farishta* so'zi sanskrit tilida *preshita* shaklida ishlatilgan bo'lib, *pra* + *esh* tarkibidan tashkil topgan va aynan “xabar beruvchi”, “xabar etkazuvchi” ma'nosini beradi¹.

K.Bartolome qadimgi eroniyda *fraishta* shaklida bo'lgan bu so'z *aish* + *fra* tarkibidan tashkil topib, “elchi”, “xabar etkazuvchi” ma'nolarida ishlatilganini qayd qiladi².

Farzand (turli shakllarda 3) – forsiy.

Forsiy (1)– forsiy, nisbiy sifat.

Fotiha (1) – arabcha.

Gunoh (1) – forsiy. Ushbu so'z pahlaviy tilida “gunoh”; “buzg'unlik” ma'nolarida *vinas* shaklida ishlatilgan. Qadimgi forsiyda *vinasa* xuddi shu mazmunda bo'lib, sanskrit tilida *vinasa* inqiroz, zavol ma'nosini beradi³. Qadimgi fors va sanskrit tillaridagi ikkala ma'no o'rtasida mantiqiy aloqadorlik borligini aniqlash qiyin emas. Fors tilining tarixiy taraqqiyotida *g* – *s* fonetik hodisasi ko'p uchraydigan tovush o'zgarishlaridan sanaladi. Bundan tashqari, “gunoh” so'zi jonli eroniy tillardan baluj tilida *gunas* shaklida ishlatilishi shubhaga o'rin qoldirmaydi. Shu o'rinda rus tilidagi *ayb* ma'nosidagi “вина” so'zi pahlaviydagi *vinas*, qadimgi fors va sanskrit tillaridagi *vinasa* bilan umumiy manbaga egaligi ravshanlashadi. Eski o'zbek tilida ushbu so'z istilohiy (Shayx ul-islom debdurki, tongla karam shodravonin andoq yoyg'ayki, avvalin-u oxirinning *gunohi* anda gum bo'lg'ay, Alisher Navoiy) va “ayb”, “nuqson” mazmunlari bilan urfiy ma'nolarda (birov *gunohin* o'zlariga tutub, yukin tortibdurlar,.. Alisher Navoiy) ishlatilgan. Ushbu so'zning *gunah* shakli asosan she'riy asarlar uchun xos deb hisoblansa ham, eski o'zbek tilida bitilgan nasriy

¹ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴ ص ۱۴۶۳

² Bartholomae Ch. Altiranisches Worterbuch. – Strassburg, 1950. – P. 31.

³ Шамсуддин бин Халаф Табризий.Бурҳони қотеъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 ҳ.ш. Жилди 3. – С. 1836.

asarlar materiallari asosida uning nasriy nutq tarkibida ham uchrashini kuzatamiz: *gunah* inshosidin ma'sumdurlar. (Alisher Navoiy).

Gunohkor (1) – gunoh oti asosida yasalgan sifat.

Ham (7) – forsiy bog'lovchi va yuklama.

Har (4) – qo'shma olmosh va qo'shma ravishlar tarkibida ishlatilgan.

Haybat (1) – arabcha.

Hikoyat (1) – arabcha.

Hosil (1) – arabcha.

Hukm (1) – arabcha.

Hunar (1) – forsiy.

Hech (1) – forsiy.

Ichi – (turli shakllarda 5) – turkiy.

Idris (3) – arabcha, atoqli ot.

Ikki (5) – turkiy, son.

Boshqacha usul bilan statistik va tarixiy-etimologik tahlil bayonini quyidagicha ham keltirish mumkin:

Turkiy so'zlar: *Ilgari* (1), *kim* (3), *kishi* (turli shakllarda 12), *ko'chmas* (1), *ko'ngillari* (turli shakllarda 3), *ko'p* (turli shakllarda 6), *ko'rsat-* (turli shakllarda 2), *ko'tar-* (1), *kun* (turli shakllarda 2), *keldi* (turli shakllarda 7), *kelin* (1), *kema* (turli shakllarda 4), *kend* (turli shakllarda 4), *kerak*, (2), *ketdi* (turli shakllarda 9), *min-* (1), *ming* (turli shakllarda 3), *muning* (turli shakllarda 2), *men* (turli shakllarda 4), *ne* (2), *necha* (3), *nechik* (1), *o'g'il* (turli shakllarda 14), *o'l- I* (turli shakllarda 6), *o'l- II* (turli shakllarda 10), *o'ltur- I* va *o'l- II* (turli shakllarda 16), *o'n* (2), *o'qi-* (turli shakllarda 4), *o'qug'uchi* (1), *o'rin* (turli shakllarda 5), *o't- I* (1), *o't- II* (1), *o'z* (turli shakllarda 3), *o'zga* (1), *ol-* (turli shakllarda 5), *oltmish* (1), *orasinda* (1), *ortinda* (1), *ortuq* (1), *ot I* (1), *ota* (turli shakllarda 8), *ot II* (3), *otli I* (1), *qavoqinda* (1), *qayda* (1), *qaysi* (turli shakllarda 3), *qaz-* (1), *qil-* (turli shakllarda 22), *qirq* (1), *qo'n-*(1), *qo'sh-* (turli shakllarda 3), *qo'shub*, *qo'shub...*

I.2. Asarda qo‘llanilgan etnonimlar. Asarda quyidagi etnonimlar tilga olingan hamda ular xususida qiziqarli lisoniy faktlar bayon qilingan:

Bayot. Mahmud Koshg‘ariy yigirma ikki urug‘i orasida to‘qqizinchisi *bajat* deb tilga olar ekan¹, bu so‘z arg‘u tilida “xudo, tangri” degan ma‘noni anglatishini ham qayd qiladi². A.N.Samoylovich totemik ma‘nodagi bu so‘z qabila nomi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa kerak deb hisoblaydi³. Uning fikricha, bu so‘z bayan “boy” so‘zining ko‘plik formasi bo‘lib, -t affiksi orqali hosil qilingan. Rashidaddinning qayd etishicha, Bayat antroponimik nom bo‘lib, Kunxonning ikkinchi o‘g‘lining ismidir. Bu so‘z “baxtli va rahmdil” degan ma‘noni bildiradi⁴. Bu nom bilan ataluvchi hududlar Turkmanistonda, Eron, Ozarbayjon va Iroq respublikalarida, shuningdek, Turkiyada ham mavjud⁵.

Ushbu etnomimga asos bo‘lgan qadimgi turkiy bay so‘zining etimologiyasi, turkiy xalqlar tarixining turli davrlarida anglatgan ma‘nolari, shuningdek, mazkur so‘z asosida hosil bo‘lgan yangi appelyativlar, qo‘shni xalqlar tiliga o‘zlashish sabab va omillari xususida V.V.Radlov⁶, N.A.Baskakov⁷, S.E.Malov⁸, E.V.Sevortyan⁹ kabi olimlar tomonidan e‘tiborli fikrlar bayon qilingan. Qayd etilgan ishlarni umumlashtirib tahlil qilgan N.Kudachina ham o‘zining mavzuni yangi mulohazalar bilan boyitgan¹⁰.

Asarda ham mazkur etnonin bilan bog‘liq qiziqarli ma‘lumotlar uchraydi. Jumladan, “Kunxonning ulug‘o‘g‘lining oti Qayi va ikkinchi *Bayot* va uchunchi Alqa evli va to‘rtunchi Qora evil. Bayotning ma‘nisi *davlatli* temak bo‘lur, tamg‘asining suvrati bu turur: qushi uki (ukki).

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 89.

² Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 186.

³ Самойлович А.Н. Богатый и бедный в тюркских языках. // Известия АН СССР отд. общ. наук. 1936. №4. – С. 31-32.

⁴ Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Том I. Кн. I. Перевод с персидского Л. А. Хетогоурова. – М., 1952. – С. 88.

⁵ Гусайинзаде А. Параллели огузских этнонимов в современной топонимии Азербайджанской ССР // Советская тюркология. №4, 1977. – С. 47-51.

⁶ Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I. ч. 2. – СПб. 1911. – С. 1122-1123.

⁷ Баскаков Н.А. мифологические и эпические имена собственные в «Слове о полку Игореве» (К этимологии «Велес» и «Боян») // Восточная филология. Т. 2. – Тбилиси, 1975; Его же. Баскаков Н.А. Тюркские элементы в «Слове о полку Игореве». – М.: Наука. 1985; Его же. Тюркизмы-этнонимы в «Слове о полку Игореве» // Советская тюркология. – 1982. – №4. – С. 14-29.

⁸ Малов С.Е. Енисейская письменность тюрков. –М.-Л., 1952. – С. 438.

⁹ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Том 2. – М.: Наука, 1978. – С. 33.

¹⁰ Кудачина Н. К этимологии слова «бай» в алтайском языке // Советская тюркология. 1980. №5. – С. 83-86.

Alqa etnonimi. *Alqa* qavlining ma'nisi muvofiq temak bo'lur. Tamg'asining suvrati bu turur: qushi Kuyka-nak.

Qora uyli etnonimi. *Qora evlining* ma'nisi har qayda o'ltursa xirgoh birlan o'lturguchi temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi ko'bak sari.

Chovdurni Mahmud Koshg'ariy etnik nom sifatida tilga oladi. O'g'uzlarning yigirmanchi urug'i *juvaldar* (*juvaldor*, *jovuldar*) ekanini qayd etadi¹. Rashidaddin bu nomni kishi ismi sifatida qayd etadi. Ko'kxonning uchinchi o'g'li *Javuldur* deb yuritilishini aytadi². Bu so'z "halol, adolatli" degan ma'noga ega. Ayrim tadqiqotchilar *Javuldur* etnonimini hozirgi *chovdur* // *choudir* bilan aloqador deb hisoblaydi. Agar *Javuldur* va *Chovdur* so'zlarini bu nomning ikki varianti deb hisoblar ekanmiz, Xorazmda bu nomlarning ikki formasi ham uchrashini qayd qilib o'tish kerak. Ayniqsa, Xorazmning shimol tomonida bu etnonim juda ham sarmahsuldir. Ayrim yozma manbalarda jumladan, Munis va Ogahiyning "Firdavs-ul iqbol" asarida ham turkmanlarning bir urug'i *chovdur* sifatida tilga olinadi³. Asarda *Chovuldur* shaklida uchraydi: "Ikkinchi o'rgada *Chovuldurni* o'lturtdilar". Ko'rinishdan, o'g'uzlarning bu urug'i turkman xalqi tarkibiga ham kirgan va so'nggi davrlarda uning nomi fonetik adaptatsiyaga uchragan. Bu etnonim Ozarbayjonda ham toponim sifatida uchraydi. Qizig'i shundaki, bu nom Ozarbayjanda ham *Chovdar* shakliga ega. Shunday qilib, o'g'uzlarning *juvoldur* urug'i turkmanlarning *Chovdur* urug'i bilan aloqadordir. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, X asrda Manqishloqda yashagan turkmanlar orasida *chovdurlar* bo'lgan. Ularning bir qismi keyinchalik Petr I davrida Shimoliy Kavkazga ko'chirilgan. Boshqa qismi esa Xeva xonligi hududida hamda Manqishloq yarim orolida qolganlar. Ular to XIX asrgacha *Chovdor*, *Chovdo'r* nomi bilan yuritilgan⁴. Z.Do'simov ta'kidlashicha, Xorazmda bu nomning ikki variantda qo'llanilishi ham ma'lum tarixiy sabablar bilan bog'liq. Bu etnonimning *Juvandur* shakli o'g'uzlarning ancha qadimgi davri bilan aloqador.

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 90.

² Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т. I. Кн. I. Перевод с персидского Л. А. Хетгурова. – М., 1952. – С. 89.

³ Шермухаммад мироб ал-мутахаллис би-л-Мунис ва Мухаммад Ризо мироб ал-мутахаллис би-л-Огахий. Фирдавсу-л-икбол. Юрий Бригелнинг саъй ва эҳтимоми била тахрир-у таъ қилинди. – Лейдин, 1988.

⁴ Брегель Ю.Э. Хarezmskie туркмены в веке. – М., 1961. – С. 431.

Uning qadimgi qo‘l yozma manbalaridagi shakliga yaqinligi ham bundan dalolat berib turibdi. Shimoliy Xorazmdagi Chovdur shakli bizning nazarimizda ancha keyingi davrga taalluqli bo‘lib u nomning turkman xalqi etnonimi sifatida tarqalganidan keyin kelgan. Darhaqiqat, hozirgi kunda ham vohada chovdurlarni turkman urug‘i deb hisoblaydilar.

Yulduzxonning ulug‘ o‘g‘lining oti Avshar va ikkinchi Qiziq va uchunchi Bektili va to‘rtunchi Qarqin. Beshinchi o‘rgada Yulduzxonning ulug‘ o‘g‘li Avsharni o‘lturdilar sog‘ uyluqni ulush berdilar, Avsharning ma’nisi ishni yildam ishlaguchi (36-bet) temak bo‘lur Avshar. Mahmud Koshg‘ariy o‘g‘uz qabilalarining oltinchisi sifatida afshar shaklida tilga oladi. Rashidaddin Yulduzxonning birinchi o‘g‘lining ismi sifatida qayd etadi. Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi taronima” asarida ham avshar etnonimi qayd etilgan. Afshar etnonimining tarqalish areali ancha keng. Mazkur komponent Ozarbayjon va Armanistona, Eron toponimiyalar tizimida juda qadimdan mavjud ekanligi ma’lum. Afsharlar o‘g‘uz ko‘chmanchi qabilalari tarkibiga kirib, IX-XI asrlarda Orol va Kaspiy bo‘ylarida hayot kechirgan. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, afsharlar Sirdaryoning quyi oqimida o‘troqlashgan bo‘lib, qishloqlarda, qo‘rg‘onlarda yashaganlar.

Eski o‘zbek tilida qo‘llanilgan savdo-moliya ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni tijorat va moliyaviy amaliyotlar, to‘lovlar, tushum va hujjat turlarini ifodalovchi terminlar hamda savdo-sotiq sohasi vakillari, muassasalari, maxsus joylar nomlari tarzida ichki guruhlariga ajratish mumkin.

Asarda savdo-sotiq, moliyaviy munosabat tushunchasi asosan hozirgi adabiy tilimizdagi kabi *savdo* so‘zi orqali ifodalangan. Bu so‘zning ushbu ma’nosi Alisher Navoiy asarlari qayd etiladi:

Zihi husnuning zuhuridin tushub har kimga bir savdo,

Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g‘avg‘o¹.

Mumtoz adiblarimiz tilida *savdo* shaklida genetik manbasi jihatidan alohida-alohida ikkita so‘z bor bo‘lib, ularning har birining o‘ziga xos ko‘chma ma’nolari

¹Алишер Навоий. Мукаммал асарлар то‘плами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 29.

ham mavjud. Alisher Navoiy asarlarida *savdo* soʻzining quyidagi maʼnolarni anglatishi qayd etiladi: I a. Qora oʻt (inson organizmi). II a. 1. Kuchli ehtiros, berilish, ishq, shaydolik. 2. Xayol, tentaklik; jinnilik. 3. Istak, havas, orzu. III f. Oldi-sotdi¹. Ushbu soʻzlarning genetik tahlili arab lugʻaviy qatlamiga mansub soʻz sifatida Rim raqami bilan belgilangan birinchi va ikkinchi maʼno aslida bir soʻzning turli maʼno qirralari ekanini koʻrsatadi. Chunki arab tilida ushbu soʻzning oʻzagi boʻlgan feʼlning asl maʼnosi “bosh boʻlmoq”, “boshliq boʻlmoq”, “boshqarmoq”; “hukmronlik qilmoq”, “hokimiyat tepasiga chiqmoq”dir. Uning “qora boʻlmoq”, “qoraymoq” maʼnosi esa qayd etilgan mazmunlarda maʼno koʻchishi natijasida yuzaga kelgan². Ehtimol, bunda Sharq xalqlarining koʻpchiligi kabi (bu holat turkiy xalqlarda ham bor) qora rangning kuchlilik, hukmronlik belgisi ekanligi asos boʻlgan. Soʻzning “qora” maʼnosi esa oʻz navbatida “qora jigar” maʼnosidagi inson organizimini anglatishi uchun asos boʻlgan. Sharq tabobatida inson tana tarkibidagi toʻrt xilt oʻrtasida muvozanatning buzilishi uning ruhiy holati salbiy tomonga oʻzgartirishi haqidagi qarashlardan kelib chiqib, ruhiy kasallikka chalinganlar *savdoyi* deb ham atalgan. *Savdo* soʻzining ruhiy siqilish, gʻamginlik, melanxoliya maʼnolari shu tarzda yuzaga kelgan. Koʻrinadiki, yuqoridagi baytda *savdo* soʻzining ikki marta (*savdo*-sotiq; tashvish, gʻam) qoʻllanishi orqali tajnis hamda ularning koʻchma maʼnolari (havas, ehtiros, oshiqlik) orqali iyhom sanʼatlari qoʻllanilgan. Boburning mashhur “sochining savdosi tushti boshima boshdin yana” misrasida ham shu tarzda iyhomning goʻzal namunasi yaratilgan.

Fors lugʻaviy qatlamiga mansub *savdo* soʻzining arabiy bu soʻzga omonimlik kasb etishi turli tillarga mansub soʻzlarning shaklan muvofiq kelib qolishidek koʻp uchraydigan hodisa natijasidir. Jumladan, arabcha *savdo* *savadda* – qoraymoq feʼlidan hosil boʻlgan sifatning arab tili qoidalariga muvofiq faʼlaa qolipida hosil boʻlgan muannas (uning muzakkar koʻrinishi afʼal vaznida *asvad*) shakli boʻlsa, forsiy *savdo* soʻzi ham maʼlum shakliy va maʼnoviy taraqqiyotni

¹ Навоий асарлари лугʻати. – Тошкент: Гʻафур Гʻулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 537.

² Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-оʻzbekча лугʻат. –Тошкент: Тошкент Ислон университети нашриёти, 2003. – Б. 399.

bosib o'tgan. Bu so'zning o'zagi pahlaviy tilida "foyda" ma'nosini anglatuvchi *sut* bo'lib, uning ildizi avestoviy *sav* – foyda olmoq fe'liga borib taqaladi¹.

Ushbu so'z asosida yasalgan *savdogar* so'zi asardagi voqealar bayonidan asosan o'zga yurtlarga borib tijorat ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan ishlatilgani kuzatiladi. Jumladan, "bir kun kelib yuknib aytdi kim *savdogarmen*"; sulton Mahmud G'aznaviyning otasi Sebuk Tegin qayi xalqindin erdi, o'zini turkmanlar asir qilib, *savdogarga* sotdilar²".

Eski o'zbek tilida *savdo* va *savdogar* tushunchalari arab tilidan o'zlashgan *tojir* va *tijorat* so'zlari bilan ham ifodalangan. Shuningdek, forsiy *korvoni* so'zi ham *savdogar* tushunchasini bergan. Ayonki, bunda asosan korvon bilan o'zga yurtlarga borib, tijoratni amalga oshiradigan shaxslar nazarda tutilgan. Korvon so'zining tarixiy tarkibi, tadqiqotlarda qayd etilishicha, "kor" so'zining "jangchi", "sipoh" ma'nosiga nisbat va tegishlilikni anglatuvchi -bon // -von qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. Mumtoz fors adiblari tilida uning *korbon* shakli ham uchrash qayd etilgan. Shu tariqa "korvon" aslida harbiy terminlar tizimidan savdo-moliyaga aloqador so'zga aylanganini taxmin qilish mumkin. "karvon ketdi ko'p kech qolding" yoki "Odam farzandlari karvonga o'xsharlar biri ko'char, biri qo'nar".

Asarda *savdogar* ma'nosida eski o'zbek tilida kam iste'molda bo'lgan *bozorgan* // *bozorgon* (*bozurgon*) so'zi ishlatilgan: "taqi biri biri birlan yog'i bo'lub, chopushurlar erdi, asir qilurlar erdi, o'zlarindin ortqan yesirlarni Mavorounnahr *bozorganlarina* sotarlar erdi,..

Bozor so'zi hozirgi fors tili uchun ham, o'zbek tili uchun ham tub so'z sanalsada, tarixan ikki tarkibiy qismdan iborat. Pahlaviy tilida *vacar* shaklida bo'lgan bu so'z qadimgi forsiyda *abacari* tarzida ishlatilgan. Uning *aba* qismi sanskritcha *sabha* bilan o'zakdosh bo'lib, "odamlar to'planadigan joy" ma'nosi anglatga, *cari* qismi maydon, sahn mazmunlarini anglatgan³. "Chor"ning mazkur ma'nosi hozirda madaniy-maishiy joy nomlaridan bo'lgan Chorsu tarkibida ham

¹ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴ ص ۱۱۸۴

² Shajarai tarokima www.ziyouz.com.

³ Шамсуддин бин Халаф Табризий.Бурхони котеъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. – С. 128.

ko‘rinadi. Bu so‘z etimoni ko‘pchilik tomonidan *chor* (to‘rt) va *su* (tomon) tarzida talqin qilinsa ham, undagi “chor” tarixan “maydon”, “sahn” ma’nolariga ega *cari* bilan aloqadordir¹.

Bozor so‘zining hozirgi eroniy tillardagi shakli undagi fonetik o‘zgarishlarni tasavvur qilishda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, gilakiyda *vacar*, simnonchada *vazhar* va *vazar*, shaHmirzodiyda *bazar*. Tadqiqotchilar frantsuz tilidagi *bazar* so‘zi unga portugal tili orqali, portugal tiliga esa fors tilidan o‘tganini ta’kidlaydilar. Bu so‘zning etimologiyasi xususida eronshunos M.Kazzoziy esa o‘zgacha mulohaza bayon qiladi. Uning fikricha, mazkur so‘z *baho* so‘zining asosi bo‘lgan va yoki *ba* hamda “joy”, “manzil” ma’nosidagi *wahag* birikuvidan tashkil topgan². Muallif ushbu fikrini “Bozor: o‘tmishi va uning ma’nolari” maqolasida ham bayon qiladi.

Qayd etilgan faktlar asardagi savdo-moliya tizimga oid terminlar tahlil ushbu soha terminologik tizimi rivoji tadqiqida ham muhim ekanligini ko‘rsatadi.

I.3. Asarda o‘zlashmalarning qo‘llanilishi. Ma’lumki, o‘zbek tiliga arabcha so‘zlarning kirib kelishi O‘rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari bilan aloqador.

O‘zbek tiliga arab tilidan so‘z olish, asosan, o‘zbek-arab bilingvizmi davrida (VII-IX asrlarda) kuchli bo‘ldi. Keyingi davrlarda o‘zbek tiliga yangi so‘zlar sezilarli darajada qabul qilinmagan, keyinchalik esa o‘zbek tiliga kirgan arabcha unsurlardan bir qismining eskirishi va o‘zbek tilidan chiqish jarayoni yuz berdi. Alisher Navoiy tilida ishlatilgan ko‘pgina arabcha so‘z va iboralar XIX asr o‘zbek tilida, shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchramaydi. Arab tilining o‘zidan bevosita so‘z olish XI asrdayoq deyarli to‘xtagan edi. Ammo turli davrlarda arabcha manbalarda, shuningdek, eski o‘zbek tili yozma yodgorliklarida saqlangan arabcha so‘z guruhlari u yoki bu davrlarda faollashib

¹ Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983. – С. 481.

² Мир Жалолиддин Каззозий. Номаи бостон. Жилди I. – Техрон: САМТ. 1379 х.ш. – С. 258.

turdi. Masalan, XX asr boshlarida o'zbek tilida ilmiy terminlar sifatida faol istifoda etilgan arabcha so'zlar ana shu keyingi manbalardan olingan¹.

Yuqorida qayd etilganidek, turli munosabatlar orqali arab so'zlari turkiy tillarga o'zlashgani kabi o'z navbatida turkiy leksemalar ham arab tili lug'at tarkibidan o'rin egallagan. Masalan, *qovurma*, *yotoq* singari. Hatto *-chi*, *-lik*, *-siz* affikslari so'z tarkibida o'tib, arabcha leksemalarga qo'shilib, yangi so'zlar yasagan².

Asari Qur'oni Karim, Hadisi Sharif hamda boshqa diniy manbalarga murojaat qilingani bois unda talaygina arabiy so'zlar uchraydi.

Tadqiqot obyekti qilib olingan yodgorlikda jamiyatning turli sohalariga oid arabcha so'zlar mavjud. Xususan, *avval* leksemasi «birinchi»: Ajam podshohlarining avvali Qayumars birlan mussir erdi; «dastlabki, ilgarigi» onlarning *avvali* oq mang'itli Qatliq-qayolining o'g'li Edigay biy tegan erdi, andin so'ng Mang'it yurti tedilar; falsafiy termin: sipos va sitoyish ul egaga kim aning hech *avvali* va oxiri yo'q va yurtining zavoli yo'q va otasi va onasi yo'q va xotini va o'g'uli va qizi va kengasha turg'an kishisi yo'q turur,.. ma'nolarini anglatgan.

Ushbu o'zlashma ilk bor «Hibat-ul-haqoyiq» asarida «birinchi navbatda», «oldin» semalarida keltirilgan: Ari zahri tatqu asaldin *avval* – asal eyishdan oldin ari zahrini totib ko'rish kerak³. XIV asr Xorazm manbalarida quyidagi ma'nolarda ifodalangan: «birinchi, dastlab»: Avval koryshkanin aytur («Muhabbatnoma»); «boshida»: Tekma fasl avvalinda bir hadis kelturduk («Nahj-ul-farodis»); «boshqatdan, qaytadan»: Sharbatni ul habib ilindan alib ichtim dag'i umrni avvaldan hisab etdim. Bu arabcha so'z avvalu shakliga ega bo'lib, o'zbek tiliga fathali hamzani a tovushiga almashtirib, so'z oxiridagi u unlisini tashlab qabul qilingan: *avvalu* > *avval*⁴.

Bala (balo) istilohi «biror voqea-hodisa, harakat tufayli yuzaga kelgan ofat, falokat» ma'nosini ifodalagan: Oninchi kyn bala kelgay teb malik qatidin chiqti

¹ Боровков А. О языке узбекской поэзии // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: 1961. №10. – С. 42-43.

² Захиди А. Слова тюркского происхождения в современном арабском языке. АҚД. Баку, 1967. – С. 7.

³ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 90.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Университет, 2001. – Б. 9.

(“Qissa”). Ushbu o‘zlashma birinchi marta Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonida uchraydi: Qolsa andin balani yig‘a – iltijo qilsa, Xudo undan baloni yiroq qilar¹. Ayni paytda, leksema o‘rganilayotgan yodnomada turkiycha -siz //-siz qo‘shimchasi yordamida sifat yasashda ham qatnashgan: Belgilyk bala turur, balasiz kimersaga bala yoq. *Bala'* > *bala* asli *bala* fe‘lining «azob berdi», «qiynadi» ma‘nosidan hosil qilingan masdar bo‘lib, arab tilida «qiynoq», «baxtsizlik» kabi ma‘noni, o‘zbek tilida esa «kulfat», «ofat», «falokat» singari ma‘noni anglatadi². Manbalarda terminning arabcha *afat* sinonimi ham qo‘llanilgan: Ey Rasulni? qumartg‘usi silahni qozg‘il, sanchishmag‘il, kerakmaz kim bir afat tegsa sendin yima mahrum qilsamiz (“Qissa”).

Vaqt so‘zi «payt», «zamon, davr» ma‘nolarini bildirgan: Haq ayg‘u vaqt keldi (“Qissa”); Mustafa alayhissalamning ulug‘ atasi Abdul Muttalib vaqtinda zamzam qudug‘i quridi (“Qissa”). Leksema dastlab Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonida qayd etilgan: Bu Bug‘raxan vaqti ichra ani yema xan tilincha aytmiş muni³. Mazkur arabcha so‘z *vaqt (un)* shakliga ega; «muddat belgiladi» ma‘nosini anglatuvchi *vaqata* fe‘lining I bob masdari bo‘lib, «zamon», «fursat», «payt» kabi ma‘nolarni umumlashtirgan holda anglatadi⁴: Ul vaqtda turkman Mangqishloq va Abulxon va Tejan suvining yoqasida o‘lturub erdilar. Manbalarda ayni paytda ushbu o‘zlashmaning turkiycha *og‘ur*, arabcha *zaman* sinonimlari ham uchraydi: Ul *og‘urda* Lut alahissalam Maqdis yerinda qosh uy alib ashliq tariyur erdi (“Qissa”); Davud ul *zaman* tabi zahidlarg‘a barmish erdi (“Qissa”); Maxloyil zamoninda Odam farzandi ko‘p bo‘ldi,.

Davlat o‘zlashmasi manbalarda «baxt, omad», «boylik, mol-mulk» ma‘nolarida qo‘llanilgan: Yana so‘rdi: *davlat* kimda bolding Aydi: Rasulg‘a bo‘ldi kafir cherigi sindi (“Qissa”); Ali urug‘ining *davlati* ketti, bu kun davlat bizga boldi (“Qissa”). XIV asr Xorazm yodgorliklarida mazkur so‘zning har ikki semasini ko‘rish mumkin: Kuyashtek *davlati*ng tabanda bolsun (“Muhabbatnoma”); Sen

¹ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 90.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Университет, 2001. – Б. 65.

³ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 632.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Университет, 2001. – Б. 91.

ushbu *davlat*ing‘a bo‘lma mag‘rur (“Xusrav va Shirin”). Leksema dastlab «baxt, omad» ma’nosida «Qutadg‘u bilig» dostonida ko‘zga tashlanadi: Ya Rab usta davlat tukal qil tilak – ey Xudo, baxti va tilagini butun qilgin¹. Alinchaxon podshoh bo‘lg‘andin so‘ng xalqning boshi va moli ko‘p bo‘ldi, *davlatga* esirdilar taqi Tangrini unutdilar. Ayni paytda, ushbu o‘zlashmaning so‘z yasash jarayonida ishtirok etganligini quyidagi misoldan bilsa bo‘ladi: Kisraning bir cherig begi bar erdi, Shahbazad atlig‘, davlatlig‘ (badavlat) erdi, qayu elga yo‘z ursa alur erdi (“Qissa”). Tutak aqlli va *davlatli*, yaxshi podshoh erdi, turk ichinda ko‘p rasmlarni ul paydo qildi.

Ma’lum bo‘ladiki, tekshirilayotgan istilohning hozirgi «mamlakat» ma’nosi keyingi davr mahsuli hisoblanadi.

Malik termini manbalarda quyidagicha ma’nolarni kasb etgan: 1) «hukmdor, podshoh»: Malik so‘rdi: bu og‘lanni qaydin alding? (“Qissa”); 2) «Alloh»: Niyazin beniyaz malika arza qildi, aydi: Ilahiy, Yusufning olykin-tirikin menga bildurgil (“Qissa”). Birinchi ma’no ilk bor «Qutadg‘u bilig» dostonida, ikkinchisi esa «Hibat-ul-haqoyiq» asarida o‘z ifodasini topgan: Mashriq maliki; Qazalar yurutkan yaratqan *malik* – taqdirlarni yaratgan Alloh².

Shuningdek, o‘rganilayotgan leksema turkiycha –liq // -lik, -siz // -siz affikslari orqali ot va sifat so‘z turkumlariga doir so‘zlar yasagan: Yalavachliq taqi maliklik bu on iki sibit arasida ovrulur erdi (“Qissa”); Bani Israil hargiz maliksiz yalavachsiz qalmas erdilar (“Qissa”). Termin ba’zi antroponimlar tarkibida ham ko‘zga tashlanadi: Akuz Malik bin Marixg‘a xabar bo‘ldi (“Qissa”). ang‘a Shoh Malik laqab qo‘yub Bukduz elindin Qo‘zichi bek tegan yuz yoshar kishi bor erdi,...

Sh.Rahmatullayev *malik* so‘zining etimologiyasi xususida shunday fikr yuritadi: malik>malik malaka fe’lining «hukmronlik qildi» ma’nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo‘lib, *podshoh* ma’nosini anglatadi; bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida

¹ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 159.

² Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 339.

antroponim sifatida ishlatiladi¹. Asar tilida mazkur terminning fors-tojikcha *padshah*, arabcha *sultan*, turkiycha *xan* sinonimlari ham istifoda etilgan:

Muni eshitib Qo‘zichi keldi taqi xonga muni bandlatib na qilay dey turursen tedi, *xon* aytdi, O‘g‘uz elina yibarayin dey tururmen to ularning ko‘ngli mendin rozi bo‘lsun.

Taqi andin ko‘chub Iraq va fors bordilar taqi anda vatan tutub qoldilar, qiniq urug‘indin *sulton* Sanjar mozining otasi Sulton Malik *shoh* borib Iroq va forsni olib, Isfihonni poytaxt qilib o‘lturg‘an vaqtda salur eli Dinglibekning o‘zining va ul bargan jamoatning nasllarindin bir necha kishilar kelib *sultong‘a* navkar bo‘lub, arz qildilarkim,.

Ko‘kam Baquyni *podshoh* qildilar, ko‘p kichik erdi,.

Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zbek ilmiy va badiiy nasri taraqqiyotida qanchalik muhim o‘rin tutsa, uning o‘zbek adabiy tili rivojida ham o‘ziga xos xizmatlari bor. Muarrixning o‘zlashmalarni qo‘llash borasidagi mulohazalari «Shajarayi turk»da bayon qilingan bo‘lib, muallif «Shajarayi tarokima»da ham ushbu aqidaga rioya qiladi. Shunga ko‘ra, har ikkala asarda qo‘llangan o‘zlashmalar davr so‘zlashuv tilida mavjud bo‘lib, umumiste’moldagi lug‘aviy birliklar sanalgan, ularni anglash o‘quvchilar, tinglovchilarga hech qanday qiyinchilik tug‘dirmagan.

Asarda qo‘llanilgan o‘zlashma so‘zlarning katta ko‘pchiligi bugungi kun uchun umumiste’moldagi lug‘aviy birliklar hisoblanadi. Jumladan, *kofir* so‘zi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik diniy mazmun kasb etgan bo‘lib, inkor qilmoq, rad etmoq ma’nosidagi kafara fe’lidan yasalgan². Kofir aslida hech qaysi dinga e’tiqod qilmaydigan, ilohni tan olmaydigan shaxsni anglatadi. Bu so‘zga G‘iyosiddin Rampuriy quyidagicha izoh bergan: “Yashiruvchi va berkituvchi ma’nosida. Dinsiz (odam) haq dinni berkitgani va islomni qabul qilmagani uchun kofir deyiladi. Forsiylar “fe”ni fatha bilan ishlatadilar. Chunonchi, “kofar”ni “xanjar”

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Университет, 2001. – Б. 230.

² Гиёсиддин Рампурий. Гиёсул-л-луғот. Лакхнау. 1886.– С. 401.

bilan qofiya qiladilar”¹. Haqiqatan ham, X.K.Baranov *kafaraning* ushbu mazmunini birlamchi ma’no sifatida qayd etgan². Lekin ushbu so’z xususida Rampuriy bildirgan fikr haqiqatdan yiroq tuyuladi.

I.Purdovud fikricha, kofir arabchaga oromiy tilidan o’tgan bo’lib, uning asli gabrdir. Gabr hozirgi fors tilida otashparast, zardushtiy degan ma’noni anglatga ham, aslida mutlaq bedin mazmunida bo’lgan. Haqiqatan ham, Purdovud talqini mazmunan ham, fonetik qonuniyatlar jihatidan ham ushbu so’zning tarixiy ildizlarini yaqqol yoritib beradi. Chunki arab tilida g tovushi yo’q. O’zlashmalarda esa bu asosan *j* (masalan, javhar) yoki *k* (masalan, Kulsum)ga almashadi. Lab-lab b esa lab-tish f ga almashishi natijasida arab tilidagi ichki fleksiya uchun juda qulay uch undosh tarkib topgan hamda shu tariqa kafara fe’li va undan hosil bo’lgan so’zlar (kufr, kuffor, takfir va h.k.) yuzaga kelgan. M.Mu’in “Mazdoparastlik va uning fors adabiyotiga ta’siri” asarida yozishicha, hozir Turkiyada g’ayridin ma’nosida gavr so’zi ham qo’llaniladi. Olim arman va rus tillaridagi *gavrik* so’zlarini ham shu o’zak bilan bog’laydi. Rus tilining lug’atlaridan birida gavrik so’zi battol, bekorchi, dilozor deb talqin qilinadiki³, bundan olimning so’zlari asosli deb qarashimiz mumkin. Lekin arab tilida kofir so’zi dehg’qon ma’nosini ham anglatishini hisobga olsak, Muhammad Rampuriy so’zlari ko’proq asosga ega ekanligi ma’lum bo’ladi. Kofirning dehqon ma’nosini kasb etishi urug’ni yerga ko’mishi, ya’ni ustini yopishi bilan izohlanadi. Arab tili semantik tabiatini hisobga olsak, ushbu mulohaza haqiqatga yaqin.

Gabr so’zi o’zbek mumtoz adabiyotida ham ko’plab qo’llanilgan. Masalan, A.Navoiy asarlarida gabr otashparast, o’tga sig’inuvchi, majusiy; gabra g’ayridin qiz, soqiy ma’nolarida ishlatilganini ko’rishimiz mumkin⁴. Alinchaxon podshoh bo’lg’andin so’ng xalqning boshi va moli ko’p bo’ldi, davlatga esirdilar taqi Tangrini unutdilar va barcha el *kofir* bo’ldilar⁵.

¹ Гиёсиддин Рампурий. Гиёсул-л-луғот. Лакхнау. 1886.– С. 401.

² Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С.693.

³ Словарь русского языка. В четырех томах. Издание третье. Том I. – М.: Русский язык, 1985. – С.295.

⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. Том I. – Тошкент: Фан, 1983. –Б.385.

⁵ Шажараи тароқима. www.ziyouz.com.

Kofir soʻzi aslida hech qaysi dinga eʼtiqod qilmaydigan shaxs maʼnosida boʻlsa ham, “islom anʼanasida va manbalarda musulmonlardan tashqari barcha kishilar – boshqa dinga ishonuvchilar, dinga ishonmovchi ateistlar ham kofir deyilgan”¹. Chunonchi, Alisher Navoiy tilida kofir (kuffor) soʻzi anʼanaviy mazmunidan tashqari moʻgʻul bosqinchilari maʼnosini ham anglatadi².

Asarda qoʻllanilgan *din* oʻzlashmasi xususida. Etnograf olim D.Eremeevning fikriga koʻra, *din* soʻzi arabchaga fors tilidan oʻzlashgan. Haqiqatan, fors tilida *din* shaklidagi soʻz boʻlib, J.Doʻstxohning yozishicha, “Avesto”da ham uchraydi. Forsiy *din* soʻzi “Avesto”da daina, pahlaviycha *din* (“i” qisqa) yoki *din* (“i” choʻziq), *din*, *dinak* shakllarida uchraydi va oʻylamoq, tanimoq maʼnosidagi do feʼlining masdaridir. “Avesto”da bu soʻz “mazhab”, “tariqat” va baʼzan “yaxshidan yomonni ajratish quvvati” mazmunini kasb etadi. Bundan tashqari, “Avesto”da *Din* shaklidagi atoqli ot ham mavjud boʻlib, mazdoparastlik dinini saqlovchi iloha nomidir va ayollar homiylaridan biri hisoblanadi. Lekin J.Doʻstxoh forsiy *din* va arabcha *din* soʻzlarining bogʻliqligi haqida quyidagicha yozadi: “Koʻpchilik tadqiqotchilar yozishicha, “yoʻsin” va “mazhab” (*din*) maʼnosidagi arabcha *din* soʻzining avestoviy dino bilan hech qanday aloqasi yoʻq va u akkadcha “qonun”, “huquq” va “qiyomat” (hukm) maʼnosidagi dinu yoki dinu (“i” choʻziq) soʻzidan hosil boʻlgan”. (“Avesto”. Tehron. Marvorid. – S. 989.). Bizningcha, J.Doʻstxohning mulohazalari ancha oʻrinlidir. “Urganchda podshoh yoʻq erdi, sultonlar dunyo va dini uchun sakkiz oy shaharga qabalib urushdilar,..”³

Koʻrinadiki, asardagi har bir oʻzlashma tahlili Abulgʻozixonning soʻz qoʻllash borasida oʻzi taʼkidlagan tamoyilga toʻla amal qilganligini tasdiqlaydi.

Keltirilgan fikr-mulohazalardan shu narsa ayon boʻladiki, eski oʻzbek adabiy tilning boyishi, taraqqiy etishida ichki imkoniyatlar bilan birga, tashqi manba ham muhim rol oʻynagan.

Bobda bayon qilingan materiallar asosida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

¹ Ислам. Справочник. – Тошкент, 1989. – Б.176.

² Навоий. Асарлар. 15 томлик. – Тошкент, 1968. 15-том. – Б.142-143.

³ Шажараи тарокима. www.ziyouz.com.

Abulgʻoziy oʻz badiiy asarlarida ona tili boyliklaridan ustalik bilan foydalandi. Muarrix ijodiy merosida oʻzbek adabiy tilining Xorazm lahjasi boyliklaridan unumli foydalanilgan;

Abulgʻoziy asarlari tilida ham eski oʻzbek adabiy til anʼanasi davom etgan, yuksak darajada takomillashgan;

Abulgʻoziy asarlari jonli xalq tili asosida yaratilgan, unda, haqiqatan, xalqchilik ruhi bilan sugʻorilgan;

Asarda Xorazm shevalariga oid soʻzlarning borligi bilan birga qadimgi turkiy tilga oid bir qator soʻzlarning ham oʻrinli ishlatilganligini koʻrish mumkin;

Asarda qarindoshlik, yaqinlik anglatuvchi; inson organizmi va uning muchallarini anglatuvchi; rang bildiruvchi; harakat, holat va nutq feʼllari kabi qadimgi turkiyga oid soʻzlar ishlatilgan;

Koʻrinadiki, asardagi har bir oʻzlashma tahlili Abulgʻozixonning soʻz qoʻllash borasida oʻzi taʼkidlagan tamoyilga toʻla amal qilganligini tasdiqlaydi.

Keltirilgan fikr-mulohazalardan shu narsa ayon boʻladiki, eski oʻzbek adabiy tilning boyishi, taraqqiy etishida ichki imkoniyatlar bilan birga, tashqi manba ham muhim rol oʻynagan.

II BOB. ASAR TILINING MORFOLOGOK XUSUSIYATLARI

I.1. Asar yaratilgan davr tilining umumiy morfologik xususiyatlari. Til tarixini o'rganish hozirgi zamon o'zbek tilini tarixiy tushunish, ya'ni bu til uzoq asrlar mobaynida davom etgan murakkab tarixiy jarayonlar samarasi ekanini anglash imkonini tug'diradi. O'zbek tili uzoq davr va asrlarning tarixiy mahsulidir. O'zbek tili tarixda ma'lum bo'lgan boshqa tillar kabi uzoq taraqqiyot bosqichini boshidan kechirdi. U jamiyat va xalq tarixi bilan uzviy bog'liq holda urug' tilidan qabila, qabila tilidan xalq va xalq tilidan milliy tilga qarab taraqqiy etib keldi. Uzoq davom etgan bu jarayonda o'tmish asrlardagi til hodisalari keyingi asrlardagi til hodisalaridan farqlanib qoldi. Har bir o'tmish davr, tarixiy hodisalar tilda o'z izlarini saqlab qoldi. Natijada hozirgi zamon o'zbek tili uning o'tmishidan uzoqlashib ketdi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning talablariga javob berolmagan til hodisalari asta-sekin umumtil aloqasidan chiqib ketdi. Ularning o'rnini zamona talabi bilan paydo bo'lib kelgan yangi hodisalar ishg'ol etdi. Shuning natijasida yuqorida aytilganidek, hozirgi o'zbek tili o'zining o'tmishidan uzoqlashib qoldi. Bu hodisalarni yozuv yodgorliklarida aks etilgan hodisalar bilan chog'ishtirilganda ko'rish mumkin.

Tarixdan ma'lumki, tilning struktura elementlari uzoq o'tmish davr ichida bir xilda o'zgarib kelmadi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot dastavval tilning leksikasiga o'z ta'sirini o'tkazadi va shunga ko'ra tilning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda uning lug'at tarkibi juda o'zgaruvchan qismidir. Haqiqatan ham, ijtimoiy taraqqiyotning yo'nalishi va xususiyatlariga qarab o'zbek tilining lug'at tarkibi tez-tez o'zgarib, yangilanib turdi. Uning tarkibida zamona va taraqqiyot talablariga javob berolmaydigan so'z va iboralar chiqib ketdi. Ularning o'rnini yangi lug'at va iboralar egalladi. Qator so'zlar esa faol lug'atdan nafaol lug'atga aylanib ketdi.

XII asr boshlarida Xorazm davlatining mavqei ko'tarilib, butun Movarounnahrni o'z ichiga oladi. Bu yer fan va madaniyat o'chog'iga aylanadi.

Mo'g'ullar hukmronligi davrida ham bu an'ana davom etadi. Bu davrda Xorazm Oltin O'rda xonligiga kirar edi. Oltin O'rdada XIII-XIV asrlar mobaynida adabiy markaz vujudga keldi. Bu yerda yozilgan asarlar til jihatdan ko'proq qipchoq-o'g'uz qabila tillari xususiyatini o'zida ifodalaydi. O'g'uz urug'lari son jihatidan ko'pchilikni tashkil etib, ular Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmda joylashgan edi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si, Qutbning "Xisrav va Shirin" asari, diniy xarakterdagi "Rohat ul-qulub", "Najh ul-farodis", Alining "Qissai Yusuf" asarlari, To'xtamish va Temur Qutluq yorliqlari Oltin O'rda adabiy tilini tashkil etadi. Oltin O'rda adabiy tiliga oid asarlarning ayrimlari Misrda va Suriyada mamlyuklar davrida yaratildi.

XIV asrga kelib eski o'zbek adabiy tili shakllana boshladi. Buning vujudga kelishiga sabab faqatgina ichki omillar: o'zbek xalqi shakllanish jarayonining kuchayishi, Farg'ona va Movarounnahr turkiy aholisi birligining yaratilishigina emas, balki Koshg'arda va Orol dengizigacha bo'lgan yerni ishg'ol qilgan Oltin O'rda adabiy tillarining shakllanishi ham ta'sir qildi. Bu esa, o'z navbatida, eski o'zbek adabiy tilining dialektal xususiyatlarini ko'paytirar edi. Farg'ona va Movarounnahrdagi adabiy asarlar tilidan Xorazmda yozilgan adabiy asarlar tili ma'lum dialektal farqlar bilan ajralib turadi. Eski o'zbek tili shakllana boshlagan davrda qabila va urug' tillarining xususiyatlari adabiy asarlarda yaqqol ko'rinadi. Movarounnahr, Farg'ona va Xorazmda qarluq, uyg'ur-o'g'uz va qipchoq dialekt guruhlarining xususiyatlari saqlanishi bilan, ayni zamonda, ular aralashib ketgan edilar. "Muhabbatnoma" va "Taashshuqnoma"da o'g'uz dialekti xususiyati o'z aksini topadi. Demak, mavjud dialekt xususiyatlarini o'z ichiga qamrab olgan umumiy adabiy tilni shakllantirish tamoyili kuchaya boradi va shu tariqa o'zbek adabiy tili vujudga keldi.

XV-XVI asrlarda Movarounnahrda Durbek, Sakkokiy, Lutfiy va Navoiy kabi buyuk shoirlar etishib chiqdiki, ular yaratgan yodgorliklarda dialektal farqlar yo'qola borib, yagona o'zbek adabiy tili shakllandi.

Shunisi xarakterliki, Navoiygacha bo'lgan shoirlarning asarlarida eski turkiy til an'analari davom ettirilishi bilan birga, ularda jonli til xususiyatlari ko'proq o'rin egallaydi.

XV asrning birinchi yarmida diniy mazmundagi bir qancha prozaik asarlar ham yaratildi. Bular “Siroj ul-qulub” (1432-yil Yazd shahrida Mansur baxshi tomonidan tuzilgan), “Tazkira-yi avliyo” (1436-yilda Mansur baxshi tomonidan tuzilgan), “Me'rojnoma”, “Baxtiyornoma” kabilar. Bu asarlar sodda va jonli tilga yaqindir. Ular eski o'zbek tilining rivojlanishida katta rol o'ynadi. Eski o'zbek adabiy tili avval qoraxoniylar davrida, keyinroq Oltin O'rda va Movarounnahrda qo'llangan adabiy tilning davomi, uning yangi taraqqiyot bosqichi edi. Eski o'zbek adabiy tili mahalliy turkiy va qisman eron urug'lari tiliga qipchoq va o'g'uz tillarining ta'siri va aralashishi natijasida shakllandi. Eski o'zbek adabiy tili butun O'rta Osiyoga, Qozog'iston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Tatariston, Boshqirdiston, Qashqar, Hirot va boshqa yerlargacha yoyiladi. Eski o'zbek adabiy tili me'yorlari asosida yozuvchi shoir va yozuvchilar XIX asrlargacha ijod qilib keldilar. Bu adabiy til an'analari ayniqsa she'riyatda uzoq asrlargacha davom etdi.

Alisher Navoiydan keyin yaratilgan nasriy asarlar va ba'zi dostonlarda eski o'zbek tilining an'anaviy me'yorlaridan uzoqlashish, xalq tiliga yaqinlashtirish holatini ko'ramiz. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari, Majlisiyning “Qissa-yi Sayfulmulk” dostoni, Abdulvahobxo'ja o'g'li Poshshoxojaning “Gulzor” va “Miftoh ul-adl” asarlari, Nishotiyning “Husn-u dil” dostoni, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari, Fazliyning “Majmuat ush-shuaro” asari shunday xususiyatga egadir.

Ana shu asarlar silsilasida “Shajara-yi tarokima” alohida ahamiyatga ega.

2.1. Asar tilida ot va uning ichki kategoriyalari ifodalanishi.

Ma'lumki, ot predmet va predmetlik tushunchasini ifodalaydigan so'z turkumi bo'lib, u grammatik son, kelishik va egalik kategoriyalariga ega bo'ladi.

2.1.1. Grammatik son kategoriyasi. «Shajarayi tarokima»da ham hozirgi o'zbek tilidagidek, birlik son so'z negiziga muvofiq keladi. Ko'plik esa maxsus

grammatik ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. "Shajara-yi tarokima"da ko'plik ma'nosini quyidagi qo'shimchalar ifodalagan:

-lar// -lár. Bu qo'shimchaning qo'llanishi hozirgi o'zbek tilidagidek, keng bo'lgan: Xorazmda *o'lturganlari* ham bizning kelurimizni eshitib qochib, bu aytilg'an uch yurtg'a bordilar.

Bu qo'shimcha «Shajarayi tarokima»da ham ayrim holat va mavhum tushunchani bildiruvchi otlarga qo'shilganda ko'plikni emas, balki kuchaytirish, ta'kidlash kabi ma'nolarni ifodalaydi: Bas necha ming kishilar mening bu so'z aytqanimg'a bilmaganlarin bilib ko'ngillari xush bo'laturur.

2.1.2. Egalik kategoriyasi. Predmet va predmetlik tushunchasining nutqdagi uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligini bildiruvchi qo'shimchalar jami egalik kategoriyasini tashkil etadi. Egalik qushimchalari negizning til oldi va til orqa xususiyatiga hamda negizda lablangan unlilarning qatnashishiga qarab, turli fonetik ko'rinishlarda qo'llangan:

-m qo'shimchasi. Unli bilan tugagan har qanday negizga qo'shila oladi: *atam, ákám.*: Urxonning qizi munlarning ichinda o'lturub turur, qizg'a kishi yibarib so'z so'zlashmakka sirim oshkora bo'lur teb qo'rqi taqi qizni go'shaga chorlab, ont berib, aytdi kim, *otam* manqa ikki qiz olib berdi.

-ım qo'shimchasi. Undosh bilan tugagan til orqa unlilari mavjud negizlarga qo'shilsa, *-im* qo'shimchasi undosh bilan tugagan til oldi unlilari mavjud negizlarga qo'shilgan: *ishim* ko'p, ov ovlamaqa qo'lum yetishmay turur, kun tug'ishi tarafinda falon cho'lning ovi ko'p ermish teb eshitdim,..

-um qo'shimchasi undosh bilan tugagan va til oldi unlilari qatnashgan negizlarga qushilsa, *-um* qo'shimchasi undosh bilan tugagan til orqa lablangan unlilar qatnashgan negizlarga qo'shilgan.

I shaxs ko'pligi, II shaxs birlik va ko'pligida ham yuqoridagi qoida o'z kuchini saqlaydi. I shaxs ko'pligida egalik qo'shimchalari *-mız// -miz, -ımız// -imiz, -umız// -umiz* va *-umuz// -umuz* tarzida: ul bizning *payg'ambarimizning* onalariing inisi Abbos avlodining o'g'lonlari Bag'dod shahrinda besh yuz yil podshohliq qildilar,..

II shaxs ko'pligida *-ηыз// -ηiz, -ыηыз// -iηiz, -uηыз// -uηiz, -uηuz// -uηuz* tarzida;
 III shaxs birlik va ko'pligida *-sы// -si* (unlilardan so'ng), *-ы // -i* (undoshlardan so'ng) qo'shimchalari qo'shilgan: *tamg'asining* suvrati bu turur: *qushi* shunqar; Bayotning *ma'nisi* davlatli temak bo'lur,...

2.1.3. Kelishik kategoriyasi. Kelishiklar gapda otning yoki otlashgan so'zning fe'lga, ba'zan boshqa so'z turkumiga munosabatini ifodalaydigan shakllardir. «Shajara-yi tarokima»da hozirgi o'zbek tilidagidek, 6 ta kelishik shakli saqlangan.

Bosh kelishik. Odatdagidek, bu kelishik maxsus ko'rsatkichga ega bo'lmaydi. Uning asosiy sintaktik vazifasi ega vazifasida kelishidir. Shu bilan birga, bosh kelishikdagi so'z kesim va ikkinchi darajali bo'lak vazifasida ham keladi.

Qaratqich kelishigi. Bu kelishik qo'shimchasi ko'p variantlidir. Negizning fonetik xususiyatiga qarab, affiksning maxsus variantlari qo'shila beradi:

-ныη // -niη. Mazkur qo'shimcha har qanday negizlarga qo'shila beradi. Bu qo'shimcha XV asrgacha bo'lgan yodnomalarda tarkibida lablanmagan unlilar bo'lmagan negizlarga qo'shilgan. Keyingi davrda esa har qanday negizga qo'shilgan. *-nuη // -nμη* esa qaratqich kelishigining bu varianti oxirgi bo'g'inda lablangan unlilar qatnashgan negizlarga qo'shilsa, qadimgi turkiy tilda undosh bilan tugagan negizlarga qo'shiladigan *-ыη // -iη // -μη* qo'shimchalari «Shajara-yi tarokima»da ham uchraydi. Lekin uning qo'llanishi ayrim so'z shakllarigagina xosdir: Qo'rqut *anlarning* zamoninda erdi, Qayumars birlan o'g'lonlarining orasi besh ming yil turur, kimning bo'lmag'anin bilmay tururmiz, muncha-muncha bilmasak ham boshdin oyoqg'acha suvratini bilatururmiz, ani aytaling,...

Qaratqich kelishigi qo'shimchasining bunday variantlari singarmonizmli turkiy tillarda va singarmonizmli o'zbek shevalarida ham uchraydi. Bu kelishikning belgisiz qo'llanishi asar tili uchun ham xarakterli.

Tushum kelishigi. Asarda tushum kelishigining *-ны // -ni // -n // -ы // -i* variantlari qo'llanilgan.

Bulardan *-ны // -ni* o'zbek tili taraqqiyotining barcha davrlarida qo'llanib kelgan: *Yolны* berkitáyin, *qamug'ны* qutqarayым ("Qissa"). Bu so'zni kizládílár

(“*Tafsir*”). Bu qo‘shimcha «Boburnoma» asarida qaratqich ma’nosini ham bildirgan: Bir *qʻyrgʻavulnʻy* muskúnásini to‘rt kishi yeb tugata almaydur.

“... arabag‘a qaniq ot qo‘ydilar andin ilgari anida yo‘q erdi, o‘zida yo‘q erdi, aning uchun qaniq tedilar, kim yuruganda qaniq qilib ovoz qilur, ani yasag‘an *kishini* qaniqli tedilar”.

-n. Bu qo‘shimcha varianti «Shajarayi tarokima»da ancha faol qo‘llangan Lekin u III shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin qo‘shilgan: “ qo‘yning *boshin* va *orqasin*, quyruqli *uchasin* va *bag‘rin* uchaning ustinda qo‘yub, Kunxonning oldinda qo‘ydilar ham kim xon bo‘lsa, ulushlari bu bo‘lsun tedilar,..”.

Tushum kelishigining bu qo‘shimchasi she’riy asarlarda keng qo‘llangan.

Tushum kelishigining belgisiz qo‘llanishi ham «Shajara-yi tarokima» uchun xarakterlidir: “bir oy *to‘y* qilding oshing tamom bo‘lmadi va hovuzlarg‘a salg‘an qimiz va ayroning gulning suvindin ko‘p bo‘ldi,..”.

Tushum kelishigini qadimgi turkiy tilga xos bo‘lgan -g’// -g, -*yg’*// -ig’// -ug’ // -*yg* variantlari «Shajara-yi tarokima»da uchramaydi.

Jo‘nalish kelishigi. Bu kelishik qo‘shimchasi «Shajarayi tarokima»da -qa // -g‘a // -ká // -gá, -a// -á va -na // -ná kabi variantlarga ega. -g‘a// -g‘gá varianti unli va jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi, -qa qo‘shimchasi jarangsiz undoshlar va g‘,-x undoshlari bilan tugagan negizlarga qo‘shiladi. XIII-XIV asr yodgorliklarida bu tartib buzilgan, ya’ni, -g‘a o‘rnida -qa qo‘shimchasi yoki aksincha qo‘llanavergan: *Ibrahimg‘a* // *Ibrahimqa*, *avg‘a* // *avqa*, *otg‘a* // *otqa* (“Qissa”).

-ká// -gá. Til oldi unlilari qatnashgan negizlarga qo‘shiladi. «Shajarayi tarokima»da qay hollarda -ká, qaysi hollarda -gá qo‘shimchasining qo‘shilishini aniqlash birmuncha qiyin, chunki arab yozuvida bu ikki variant ham “kof” harfi bilan yozilgan. Shunga qaramasdan, jarangli va sonor undoshlar va unlilardan so‘ng -gá, jarangsiz undoshlardan so‘ng -ká qo‘shimchasining qo‘llanganini mushohada qilish mumkin.

-a /-á. Bu affikslar undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi. Lekin uning qo‘llanishi janrlar bo‘yicha chegaralangan. Bu shakl XIII- XIV she’riy asarlarda

ham, prozaik asarlarda qoʻllangani holda, XV asr va undan keyingi davrlarda asosan sheʼriy asarlarda uchraydi: “emdi sening birlan qarindosh tururmiz, kel taqi *yurtunga* ega boʻl, men qaytaturmen tedi”; “oʻng yoqda olti oq oʻrga va soʻl yoqda olti oq oʻrga tikturdi va taqi oʻng yoqda *boshina* oltun taquq berkitgan qirq quloch ogʻachni tikturdi va soʻl yoqda boshina kumush taquq berkitgan qirq quloch ogʻachni tikturdi”.

Qadimgi turkiy tilga oid boʻlgan *-gʻaru / -gárμ // -qaru // -kárμ // -ru // -rμ* affikslari «Shajara-yi tarokima»da oʻzining kelishik vazifasini yoʻqotgan. Ular keyinchalik ravish yasovchilarga aylanib ketgan.

Oʻrin-payt kelishigi. Bu kelishikni hosil qiladigan quyidagi affiks variantlari uchraydi:

-da/-dá jarangli undosh va unli bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi.

-ta/-tá jarangsiz undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi.

Oʻrin-payt kelishigining *-ta/-tá* affiksi «Boburnoma»da va ayrim boshqa asarlarda uchrasa ham, odatda, jarangsiz undoshlardan keyin ham *-da/-dá* affiksi qoʻshila bergan.

Chiqish kelishigi. Bu kelishikni hosil qiluvchi quyidagi affikslar mavjud:

-дын/-din unli va jarangli undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi.

-тын/-tin jarangsiz undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi.: *Sen bashtын ayaq jan-sen (Muhabbatnoma)*, lekin jarangsiz undoshlar tugagan soʻz negizlariga ham *-дын/-din* affiksi qoʻshila beradi. Aksincha jarangli undosh bilan tugagan soʻzlarga ham *-tin // -тын* affiksining qoʻshilishi qayd qilinadi: *Xojandтын Axsıgʻa kelır (Bobir)*.

-dan/-dán// -tan/-tán. Bu affiks XV asrdan oldingi yodgorliklarda uchraydi va ular fakultativ xarakterdadir.

Chiqish kelishigining qadimgi turkiy tilga oid *-dun/-dμn// -tun/-tμn* affikslari «Shajara-yi tarokima»da uchramaydi.

Til tarixi faktlari shuni koʻrsatadiki, chiqish kelishigi shakli keyingi davrlarda shakllangan boʻlib, uning oʻrnini maʼlum davrlarda oʻrin-payt kelishigi bajargan.

Garchand bu xususiyat qadimgi turkiy tilga xos bo'lsa ham, eski o'zbek adabiy tilida chiqish kelishigi ma'nosida o'rin-payt kelishigi shakli qo'llangan.

Keyingi tahlil qilingan kelishik shakllarining asarda qo'llanishini quyidagi parcha orqali ko'rsatish mumkin: “ Hech kishi anga qiz (ini) bermadi, axir Ichbek cho'raning o'g'lonlarindin birisi anga qiz(ini) berdi, *andin anlarg'a* chig'atoy qullar tedilar. To'rtunchi Qashqa cho'ra ul taqi Amu suvining yoqasinda Achi tengizning *yaqininda* yurt tutub o'lturdilar. Aning *o'g'lonlarina* Qora evlilar tedilar, Ulug' *aqalarindan* davlatli bo'lub, muning *qatig'a* hech kishi kelib qo'shulmadi,.. *xong'a* aytdilar kim Abulxon tog'i teva o'sgali ajoyib yaxshi er turur teb, bu sababdin xon o'ttuz evli sarbonni ko'churub, Abulxon *tog'ig'a* yibardi, aning ichinda har urug'din bor erdi, barchasi ma'lum turur kim podshohlar xizmatinda har toifadin bo'lur, anlar ham shundaq erdilar, Jonibekxonning bir kishisi Abulxon *turkmanig'a* kelib, har *yilda* olaturg'an mollarini olib, ko'p tevani aytilg'an o'ttuzli *tevachig'a* topshurib ketdi, to Jonibekxon o'lguncha Abulxonda o'lturdilar, *onlarg'a* tevachilar tedilar. Jonibekxon ham haq rahmatig'a bordi va o'g'li Berdibek xon bo'ldi. Aning zamoninda ham tevachilar xonliq tevani baqib o'lturub erdilar, Berdibekxon o'lgandin so'ng O'zbekning ichi buzuq bo'ldi, ani Abulxon turkmani eshitib, xonning tevalarini taladilar, tevachilarni chopdilar, andin so'ng tevachilar ochliq sababindin baliq ovlarbiz teb, Qashqa churaning o'g'lonlari qora evlilar *qatig'a* borib o'lturdilar, bir necha *yildin* so'ng tevachilar ko'p xalq bo'ldilar, onlarning yurtlarining yuqorisi Aqtam, ayog'i O'g'urcha erdi, Qora evlilar tevachilar ichinda ko'p orqa o'lturdilar”.

Sifat. Asardagi sifat turkumiga oid so'zlarning katta qismini yasama sifatlar tashkil qiladi. Yasama sifatlar ikki xil yo'l bilan: morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya) hosil qilinadi. Morfologik usul bilan sifat yasalishi uzoq tarixga ega bo'lgan asosiy usuldir. Sifat yasalishiga asos bo'lgan o'zak morfema ism yoki fe'l turkumiga oid bo'lishiga qarab yasovchi morfemalar ham ismlardan yoki fe'llardan sifat yasovchi tarzida ikkiga bo'linadi.

Sifat yasovchi affikslar tarixan ko‘p bo‘lmagan, ular hozir ham unchalik ko‘p emas. Ismlardan sifat yasovchi affikslar. Ism turkumiga oid so‘zlardan sifat yasashda quyidagi affikslar qo‘llangan:

-lɨg’/-lig,-luq/-lug’,-lɯk/-lɯk. Ushbu affiks variantlarining ishlatilishidagi fonetik sharoit quyidagicha:

Tarkibida lablanmagan unlilardan biri bo‘lgan bir bo‘g‘inli, shuningdek, barcha yoki so‘nggi bo‘g‘inida shu unlilardan biri bo‘lgan ko‘p bo‘g‘inli qattiq negizlarga affiksning asosan lablanmagan orqa qator variantlari, yumshoq negizlarga esa old qator variantlari qo‘shiladi: *ag‘ɨzɨɣ, yazɨɣ, bag‘lɨg’, tatɨɣ, yashɨɣ, qanɨɣ, biliglig, qorg‘anɨɣ, atɨɣ, yarag‘lɨg’, evlik, yamag‘lɨɣ, kechálík*.

Lablangan unlili bir bo‘g‘inli, shuningdek, barcha yoki so‘nggi bo‘g‘inda lablangan unlisi bo‘lgan qattiq negizlarga affiksning lablangan orqa qator variantlari, yumshoq negizlarga old qator variantlari qo‘shiladi: *boyluq, qayg‘uluq, otluq, anduhluq, kɯchlɯk, yɯzlɯk, olturushluq, kO‘rklɯk, tɯrlɯg,qutluq, otlug‘ otluq, yamg‘urluq, tɯklɯk, uyluk, yosunluq, sɯtlɯk, kɯlgɯlɯk, kɯchlɯk, sɯyɯklɯk*.

Misollar: “necha yilliq g‘amlarin yesunlar», teb ikkinchi yili otlandi taqi Talash shahrig‘a keldi,..; Avsharni o‘lturtdilar sog‘ *uyluqni* ulush berdilar,.. har qaysisi bir *turluk* va bir durust e‘tibor qilg‘udek tarix bo‘lsa erdi, yaxshi bo‘lur erdi teb o‘tun qildilar ersa, onlarning o‘tunlarini qabil qildim”.

Ba‘zan bu umumiy qonuniyatning buzilishi kuzatiladi; lablanmagan unlili negizlarga affiksning lablangan variantlari, shuningdek, orqa qator variantlari yumshoq o‘zaklarga va aksincha, old qator variantlari qattiq negizlarga qo‘shilib keladi.

-lɨ/-li,-lu/-lɯ. Bu affiks variantlarining ishlatilishida ham asosan singarmonizm konuniyatiga amal qilingan: old qator variantlari yumshoq negizlarga, orqa qator variantlari qattiq negizlarga qo‘shilgan: *kendli, otɨɣ, yag‘lɨ, tatɨɣ, meɣ izli, kerákli, biligli, yaralɨ, yaqalɨg‘* kabi. Lablangan *-lu/-lɯ* variantlarining qo‘llanishida boshqacharoq manzara kuzatiladi; singarmonizm qonuniga

binoan tarkibida lab unlilaridan biri bo'lgan bir bo'g'inli yoki so'nggi bo'g'inida shu unlilardan biri bo'lgan ikki yoki ko'p bo'g'inli kattiq negizlarga affiksning orqa kator variantlari, yumshoq negizlarga old qator variantlari qo'shilishi kerak bo'lgani holda, bu qonuniyatga mos ishlatilish siyrak kuzatiladi: *otlu, tug'lu* kabi.

- *gi/-g'bi, -qbi/-ki* affiksi qadimiy mahsuldor morfemalardan bo'lib, O'rxun-enisey, qadimgi uygur yozuvi obidalari, XI—XIV asrlarga mansub yodgorliklar tilida ham ancha keng ko'llangan: "anlar *yuqorig'i* to'shak birlan quyig'i to'shakni zabt qila bilmaslar". -*dag'bi/-dági, -daqbi/-dáki*. Bu affiks asosan otlarga qo'shib, o'ringa va paytga mansublik ma'nosidagi sifat yasaydi:

-*sbi/-siz*. Bu affiks asosan otlarga qo'shib o'zakdan anglashilgan narsaga, holatga, xususiyatga ega emaslik ma'nosini ifodalovchi sifat yasaydi.

Fe'dan sifat yasovchi affikslar. Fe'dan sifat yasovchi affikslar unchalik ko'p emas. Ulardan faqat birgina affiks sermahsul bo'lib, qolganlari kammahsul va o'ta kammahsul affikslardir.

Ular quyidagilar:

-*g/-g', -q/-k(big'/-ig, -biq/-ik, -ug/-μg', -uq/-μk)*. Affiks variantlarining ko'pligi singarmonizm qonuni amalda bo'lganligidan dalolat beradi. Biroq yumshoqlik-qattqlik va lab garmoniyasi qoidasining bir qadar buzilishi kuzatiladi, jarangli va jarangsiz undoshli variantlar ishlatilishida muayan qonuniyat va fonetik sharoitni belgilash qiyin.

Fe'dan sifat yasashda eng sermahsul bo'lgan bu affiks yordamida yasalgan sifatlarda o'zakdan anglashilgan ma'no bilan bog'liq belgi-xususiyatga egalik tushunchasi ifodalanadi.

Sintaktik (kompozitsiya) usul bilan yasalgan sifatlar sifat turkumiga mansub leksik birliklarning katta qismini tashkil qilgan. Ular sifat va boshqa turkumlarga mansub so'zlarning bir-biri bilan turli kombinatsion vositalar yordamida birikuvi, juftlashuvi, takrorlanuvi va tiziluvi orqali hosil bo'lgan. Ular tarkibiy qismlarining birikuv tarziga ko'ra qo'shma va murakkab sifat yasaladi.

Sintaktik usul bilan yasalgan sifatlar turg'un bo'lmaydi va u ko'proq uslubiy vazifa bajaradi.

Sifat darajalari. Sifat darajalarining turkiy tillarga xos har uchala turi va har bir turning ifodalanish usullari bu davr tilida ham mavjud.

Hozirgi va o'tmish lingvistik adabiyotlarda sifatning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari haqida fikr yuritib kelingan va unda rus tili qolipidan kelib chiqilgan. O'zbek tilidagi sifatlar esa bu qolipga tushmaydi, balki oddiy daraja, belgining kamligi darajasi va belgining ortiqligi – kuchaytiruv darajasini farqlash imkoniyatini beradi.

Oddiy daraja. Boshqa darajalarning hosil bo'lishi uchun negiz vazifasini bajaradi va belgi neytral darajada bo'ladi. Bu shakl "nol" shakl bo'lib, unda affiks qatnashmaydi.

-raq/-rák belgining kamligi darajasida sifatga xos bo'lgan asosiy belgining kamligini bildirmaydi, balki boshqa belgida sifat ifoda qilayotgan belgidan qisman mavjudligini anglatadi.

Belgining ortiqligi va kuchliligi darajasi. Bu daraja sifatlarni to'liq va to'liqsiz takrorlash hamda sifat oldidan ravishlarni keltirish orqali hosil qilinadi.

To'liqsiz takror. Bunda birinchi bo'g'in *p, m* undoshlari ishtirokida takrorlanadi. Ta'kidlash zarurki, *-raq/-rák* affiksli shakllarda qiyos ma'nosi yo'q emas, balki belgining kamligi ma'nosi bosh ma'nodir.

Sanoq sonlar. «Shajara-yi tarokima»da sanoq sonlar kishi, narsa hamda hodisalarning sanog'ini bildirgan, sanoq sonlarning birlik, o'nlik, yuzlik, minglik va boshqa shakllari qo'llangan. Sanoq sonlar sodda va murakkab shakllar orqali ifodalangan, arab, fors-tojik, hind tillaridan o'zlashgan sanoq sonlar ham uchraydi.

Asarlarda *bir toqquz, toqquz-toqquz* iborasi qo'llangan, har narsaning to'qqiztalik songa ega ma'nosini anglatgan.

Yigirmá soni *yigirmi* shaklida ishlatilgan: “ Ko'kam Baquy yigirmi yil podshohlik qilib vafot topdi”.

XV-XIX asrlarga oid yozma manbalarga arab, fors-tojik hamda hind tillaridan ba'zi sanoq sonlar o'zlashgan, o'zlashgan sanoq sonlar o'z shakllarida qo'llangan. Fors-tojikcha: *s a d h a z a r* (*Lutfiy*); *y a k – y a k* (*O g a h i y*); *du bara* (*Muqimiy*).

Hindcha *lák* soni XVI—XIX asrlarga oid yozma manbalarda qo'llangan: *Yuz myñ ny l á k derlár* (*BN*); *myñ l á k somny* (*Muqimiy*).

«Boburnoma»da hindcha *k O' r u r* — (*o'n million*), *arb* (bir milliard), *kO'rb* (yuz milliard), *nayl* (*o'n trillion*), *padam* (milli-trillion), *sañ* (eng yuqori sanoq son) sanoq sonlari qo'llangan.

Dona sonlar. XV—XIX asrlarga oid yozma manbalarda dona sonlar ifodalovchi shakllar kam rivojlangan, dona sonlar vazifasini turli son shakllari bajargan. Alisher Navoiyning «Mahbubul qulub», «Sab'ai sayyor», Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asarlarida bir, ikki sanoq soniga *-tá* affiksi qo'shilib dona son hosil bo'lgan: *b i r t á yarmag'* ikki *bO'lub* (*Navoiy MQ*); *b i r t á O' tmá* kni *iki bO'lub* (*Navoiy MQ*).

XV–XIX asrlarga oid yozma manbalarda sanoq sonlar dona sonlar ma'nosida qo'llangan: *Y e t i ag'zy anyñ otlar sachyb* (*Navoiy HA*). *Yiz m ы ñ bayty bar va b i r qasida aytybdur* (*Navoiy MN*). Numerativ so'zlar. Numerativ so'zlar XV–XIX asr yozma manbalari tilida ham deyarli sanoq sonlar bilan qo'llangan, bu davr yozma manbalari tilida numerativ so'zlarni qo'llash qadimgi turkiy hamda XI–XIV asr yozma manbalari tiliga nisbatan kengaygan. «Shajara-yi tarokima»da ham numerativ so'zlar xarakteriga ko'ra turlicha ma'nolarni anglatgan. Numerativ so'zlar sanoq son bilan aniqlanayotgan so'zlar orasida qo'llanib, aniqlanmish so'zga nisbatan qo'shimcha aniqlik darajasini oshirgan. Shuningdek, numerativ so'zlar ulush, miqdor, hajm, vosita birligi, masofa, to'da, o'lchov birligi, guruh, dona kabi qator ma'nolarni anglatgan.

Tartib sonlar. XV – XIX asrlarga oid yozma manbalar tilida tartib sonlar asosan sanoq sonlarga affikslar qo'shilishi orqali hosil qilingan. Arab, fors-tojik tillaridan o'zlashgan sonlar leksik-semantik usul bilan ham tartib son ma'nosini anglatgan, ba'zan o'zlashgan tartib sonlar shakli ham qo'llangan.

-nchʻy, -inchi, -unchʻy, -unchi, -nchʻy, -nchi affiksi variantlari asosida tartib sonlar hosil qilish keng qoʻllangan. *-nchʻy, -inchi, -unchʻy, -munchi* affiksi undosh tovushlar bilan tugagan sanoq sonlarga, unli tovush bilan tugagan sanoq sonlarga *-nchi, -nchʻy* affiksi varianti qoʻshilgan: *ikkinchi, yetinchi, mchmunchi, toʻrtmunchi, altyinchʻy, onunchʻy*.

-lanchʻy, -lanchi (lángnchi) affiksi sanoq sonlarning qattiq, yumshoqligiga koʻra qoʻshilib, tartib sonlar hosil qilingan, bu affiks bilan tartib son hosil qilish Alisher Navoiyning «Mahbubul qulub» ham asarida uchraydi, XVII asrdan boshlab *-lanchʻy, -lanchi* affiksi orqali tartib son hosil qilish kengaygan:

Avval soʻzi *birinchi* tartib soni maʼnosida qoʻllangan.

Jamlovchi sonlar. Jamlovchi sonlar oʻziga xos xususiyatlarga ega, shuningdek, jamlovchi sonlarda umumturkiy tillarga xos belgilar ham mavjud. Jamlovchi sonlar sanoq sonlarga *-av, -áv, -la, -lá, -ala, -álá, -avla, -ávlá, -avlan, -ávlán,* affikslari qoʻshilishi orqali ifodalangan.

Olmosh ot, sifat, son va baʼzan boshqa soʻz turkumlari oʻrnida qoʻllanib, predmet va unga xos boʻlgan belgining mavjudligini koʻrsatadi. Olmosh predmetlikni yoki uning belgisini doimiy emas, balki muayyan oʻrinlarda ifoda qiladi. Shu jihatdan olmosh mustaqil soʻz turkumi hisblansa-da, konkret maʼnoga ega boʻlmaydi.

«Shajara-yi tarokima»da olmoshlar maʼno xususiyatlariga quyidagi guruhlariga boʻlinadi: kishilik olmoshlari, oʻzlik olmoshlari, koʻrsatish olmoshlari, soʻroq olmoshlari, birgalik olmoshlari, belgilash olmoshlari, gumon olmoshlari, boʻlishsizlik olmoshlari.

Kishilik olmoshlari. Kishilik olmoshlari leksik-semantik jihatdan maʼlum soʻz kategoriyasidir, hamda grammatik xususiyatlarga koʻra, turli affikslar bilan ifodalangan, kishilik olmoshlarining baʼzi fonetik variantlarini hisobga olmaganida, koʻpchilik qismi hozirgi oʻzbek tilida foydalanilmoqda.

Kishilik olmoshlarining I shaxs birligi: *men*.

Faqyr va bu faqyr soʻzlari Navoiy, Abulgʻozi Bahodirxon, Ogahiy, Muqimiy asarlarida qoʻllangan: *F a q ы r* taraf tutub yalgʻan aytgʻan bolgʻaymen.

XV asrdan boshlab *men* olmoshi o'rnida *faqyiri-haqyr*, *faqyiru-haqyr* so'zlari birikmasi ham qo'llana boshlangan, ba'zan *bu* olmoshini *faqyiri haqyr* so'zlardan oldin ko'llash Navoiy hamda Ogahiy asarlarida uchraydi.

II shaxs birligi: *sen*. Kishilik olmoshining *sen* shakli sinu yo nun bilan yozilgan, *sen* olmoshi tarkibidagi yo asosan old qator lablanmagan o'rta keng *e* unlisining belgisini ifodalaydi.

Sen olmoshi sinu nun yo orqali hamda *yo* belgisini tushirib yozilsa ham, «Shajara-yi tarokima»da *sán* emas, *sen* shaklida talaffuz etilgan.

III shaxs birligi: *ul*, ba'zan *u*, *an* shakli qo'llangan. XV— XIX asr yozma manbalarida asosan *ul* varianti qo'llangan. *Ul* olmoshi tarkibidagi *-l* undoshining tushib qolishi orqali ba'zan *u* shakli vujudga kelgan. *U* kishilik olmoshi «Boburnoma» hamda Huvaydo asarlarida ba'zi o'rinlarda uchrayd.

III shaxs kishilik olmoshi birligining *an* varianti uchraydi.

I shaxs ko'pligi: *biz*. *Biz* olmoshi XV-XIX asr yozma manbalari uchun umumiy xarakterga ega, yumshoq talaffuz etilgan, ko'plik, birlik ma'nolarida qo'llangan. *Biz* olmoshi ko'plik ma'nosida, birlik ma'nosida ham qo'llangan. Ko'plik ifodalash xususiyatini yanada oshirish uchun *biz* olmoshiga *-lár* affiksi qo'shilgan.

II shaxs ko'pligi: *siz*. *Siz* olmoshi ko'plik ma'noda qo'llangan, uning ko'plik ma'nosini kuchaytirish uchun *-lár* affiksi qo'shilgan

III shaxs ko'pligi: *alar*, *anlar*, ba'zan *unlar* shakli qo'llanilgan.

III shaxs ko'pligi tarixiy taraqqiyotida quyidagilar ko'zga tashlanadi: XIII-XIV asrlarda *ular*, *anlar* varianti keng qo'llangan bo'lsa, XV asrdan boshlab *alar* varianti faollashadi. Lekin asarda *anlar* varianti faol. ur).

Ko'rsatish olmoshlari. «Shajarayi tarokima»da *bu*, *bul*, *ul*, *oshal*, *oshul*, *shul*, *ushbu*, *hamul*, ba'zan *ush*, *shu* kabi ko'rsatish olmoshlari tuzilishi jihatidan sodda hamda murakkab shakllardan tashkil topgan. *Bu* ko'rsatish olmoshi kelishiklar bilan turlanganda va ko'plik affiksini olganda, uning tuzilishida turli fonetik o'zgarishlar yuz beradi. Bosh kelishikdan boshqa kelishiklar bilan turlanganda, so'z boshidagi *b* undoshi *m* ga o'tadi: *buný-muný*, *bunuy* -

munuŋ kabi. Shuningdek, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishiklarida negiz va kelishik hamda koʻplik affiksi oʻrtasida interkalyar «n» undoshi orttirilishi mumkin. Kelishiklar bilan turlanganda «n» undoshining orttirilishi doimiy (statik) boʻlsa, koʻplik shaklida u doimiy emas. Misollar: “*muning* qatigʻa hech kishi kelib qoʻshulmadi, *aning* uchun oʻlturgʻan yeri yomon erdi,.. Soʻz boshida «b»ning «m»ga oʻtishi ham doimiy emas: Barcha xalq *bunı* eshitib... *Bu* olmoshi XVIII-XIX asrlarda *bul* variantida ham qoʻllangan.

Soʻroq olmoshlari. «Shajarayi tarokima»da ham *kim*, *ne*, *qay* soʻroq olmoshlari mustaqil qoʻllangan, boshqa soʻroq olmoshlari *ne* va *qay* olmoshlariga tarixan yuklama, soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar qoʻshilgan shakllarda qoʻllangan, lekin bunday soʻz va qoʻshimchalar oʻzining morfematik maʼnolarini yoʻqotgan hamda soʻroq olmoshlarining turli modal shakllarini hosil qilgan xolos, aslida olmosh yasash uchun xizmat qilgan emas.

Ne olmoshi toʻliqsiz feʼllar birga qoʻllana olgan va feʼl tarkibiga oʻtgan. *Ne* olmoshi koʻplik affiksini, tushum, chiqish kelishigi affikslarini olgan va ularda kelishik affikslari funktsional boʻlgan, joʻnalish kelishigi affiksi esa olmosh tarkibida kristallashib qolgan. Qaratqich va oʻrin-payt kelishigida qoʻllanishi masalasi ochiq qoladi.

Ne olmoshi negizida shakllangan soʻroq olmoshlari:

Nemá. Bu soʻz tarkibidagi *má* soʻzi qadimgi turkiy tilga oid yuklamadir.

Nechin//nevchin. *uchin* koʻmakchisi ishtirokida shakllangan va sabab maʼnoli soʻroq olmoshidir.

Nechik. Bu olmosh qadimgi turkiy tilda bir necha taraqqiyot davrlarini boshidan kechirgan: *ne+chá* // *ne+chá+ká* // *ne+chá+k* // *nechik*. Ikkinchi taxmin: *ne+chagʻ* / */ne+chaq* // *ne+chá-k-nechik*. *Nechik* olmoshi ham sabab maʼnosini ifodalaydi.

Nechá. Bu olmosh *ne+chagʻ* soʻzlaridan soddalashgan. Miqdorni soʻrash uchun qoʻllanadi. Bu olmosh III shaxs egalik affiksini va barcha kelishik affikslarini qabul qilgan.

Negá. Joʻnalish kelishigi affiksi orqali shakllangan va sabab maʼnosiga ega.

Qa(y) olmoshi (qadimgi turkiy tilda *qan*) mustaqil qoʻllangan va belgi maʼnosiga ega boʻlgan. *Qa(y)* olmoshi negizida quyidagi soʻroq olmoshlarining modal maʼnolari hosil qilinadi. *Qayu*. Bu olmosh tarkibidagi *-u* shaklni *-i/-bi* egalik affiksining variantidir.

Qaysbi. *-sbi* shaklni III shaxs egalik affiksidadir. Bu olmosh koʻplik, egalik affikslarini qabul qilgan. *Qayu*, *qaysbi* olmoshlari belgini ajratib, taʼkidlab soʻrash maʼnosini anglatadi.

Qancha. Bu olmosh *qay(n)+cha(chagʻ,cha)* qismlardan iborat boʻlib, dastlab payt maʼnosini, keyinchalik miqdor maʼnosiga koʻchgan.

Qachan. Bu soʻroq olmoshi *qay+chagʻ+bin* (*qay vaqt bilan*) soʻzidan soddalashgan va payt maʼnosiga ega.

Belgilash olmoshlari. Aksariyat adabiyotlarda bunday olmoshlar birgaolik, birgalik-belgilash olmoshlari deb yuritilgan.

«Shajara-yi tarokima»da ikki guruh belgilash olmoshlari qoʻllangan:

1. Yakkalikni koʻrsatuvchi belgilash olmoshlari.
2. Toʻdani, guruhni koʻrsatuvchi belgilash olmoshlari.

Yakkalikni ajratib koʻrsatuvchi belgilasholmoshlariga *har* va uning ishtirokida hosil qilingan olmoshlar.

Toʻdani, jamlikni bildiruvchi belgilash olmoshlariga arxaik *qamuq//qamugʻ*, turkiy qatlamga xos boʻlgan *barcha*, *barbi*, *barbiq*, fors va arab tillariga xos boʻlgan *baʼzi*, *hama* (*hamma*), *tamām*, *jumla*, *jamʼ*, *majmuʼ* olmoshlari taalluqlidir.

Feʼl semantik doirasi keng, lekin, asosan, ish-harakat hamda ish-harakat tasavvurini beradigan holatni anglatadi, yaʼni *barmaq*, *kelmák* kabi feʼllar ish-harakatni, *eshitmák*, *oylamaq* feʼllari esa holatni bildiradi.

Feʼl turkumiga bir necha morfologik kategoriyalar xosdir: funktsional shakllar, boʻlishli-boʻlishsizlik, nisbat, tuslanish, mayl va zamon.

Feʼldan boshqa turkumlardan soʻz yasovchi affikslar orqali feʼl yasalishi mumkin:

-la/-lá affiksi. Bu affiks barcha davrlarda ham faol qoʻllangan. Ot, sifat, son, ravish, baʼzan olmosh turkumlaridan feʼl yasagan. Turkiy va turkiy boʻlmagan soʻzlarga ham qoʻshilgan.

-da/-dá affiksi. Bu affiks *-la/-lá* affiksining fonetik variantidir. «Shajara-yi tarokima»da sonor undoshlardan soʻng qoʻllangan.

-a/-á affiksi. Ot turkumidagi soʻzlardan feʼl yasagan.

-y/-ay affiksi. Sifatdan feʼl yasagan.

-r/-ar/-ár affiksi. Sifatdan feʼl yasagan.

-qar/-kár affiksi. Otdan feʼl yasagan.

-sa affiksi. Otdan feʼl yasagan.

Feʼlning nutqda qoʻllanishga xoslangan shakllari uning funktsional (amaliy) shakllaridir. Feʼlning ayrim shakllari kelishik, egalik affikslarini ham qabul qiladi, gapda ot va boshqa soʻz turkumlari vazifasini bajarib, ega, aniqlovchi, toʻldiruvchi yoki hol vazifasida ham kela oladi. Shunga koʻra, bunday shakllar feʼlning grammatik funktsional shakllari hisoblanadi. Feʼlning grammatik funktsional shakllarini sof feʼl, harakat nomlari, sifat-dosh va ravish-dosh shakllari tashkil etadi.

Feʼlning grammatik funktsional shakllarida, bir tomondan, feʼlga xos belgilar mavjud boʻlsa, ikkinchi tomondan, morfologik xususiyatlari va sintaktik vazifalari boʻyicha bu shakllar boshqa soʻz turkumlariga ham yaqin turadi. Bu jihatdan sof feʼllar faqat feʼllarga, harakat nomlari otga, sifat-dosh shakllari sifatga, ravish-dosh shakllari ravishga yaqin turadi.

Harakat nomi shakllari. Ular ish-harakat va holatning atamasidir. «Shajarayi tarokima»da harakat nomining quyidagi shakllari amalda boʻlgan:

-maq/-mák affiksli shakl. Bu shakl harakat nomining asosiy koʻrsatkichi sifatida faol isteʼmolda boʻlgan.

-sh(-bush/-ish, -ush/-ush) affiksli shakl «Shajara-yi tarokima»da kam isteʼmolda.

-v/-uv/-iv affiksli shakl kam qoʻllangan.

Sifat-dosh shakllari. Turkiy tillarda sifat-dosh predmetning belgisi boʻlgan ish-harakat va holatni hamda bevosita ish-harakat va holatni anglatadi. Sifat-dosh

shakllarida belgi-harakat ma'nosi bilan birga, grammatik zamon ma'nosi ham mavjud bo'ladi. Bu hol sifatdosh shakllarining harakat nomi shakllaridan farqlovchi asosiy belgisini tashkil etadi. Sifatdosh *-mish/-mish, -duq/-dμk//tuq/-tμk, -g'an/ -g'an // -qan /-k'an, -an /-án* affikslari bilan hosil bo'luvchi shakllar kiradi; *-r(-ar/-ár, -yp/-μr, -ıp/-up, -yyp/-yμr), -maz/-máz//mas/-más, -g'u/-gμ-qu/-kμ, -g'uchi / -gμchi//quchı/-kμchi, -dachı/-dáchı//tachı/-táchı, -g'lı/-gli, -acı/-ási* va boshqa affikslar bilan hosil bo'lgan.

Ravishdosh shakllari. «Shajarayi tarokima»da quyidagi affikslar bilan ravishdosh hosil qilingan:

-b(-ıb/-ib, -ub/-μb) affiksli ravishdosh qo'llanishi, ma'no va vazifalari quyidagicha:

1. Shaxsli fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish holatini ko'rsatib, ravish holini ifodalaydi. Bunda ravishdosh ifodalagan ish-harakat bilan shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakat o'rtasidagi vaqt munosabati quyidagicha ikki xil bo'ladi:

a) ravishdosh ifodalagan ish-harakat shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakatdan oldin bajariladi. Bunday hollarda ravishdosh asosan harakat ma'nosini ifodalovchi fe'llardan iborat bo'ladi.

b) ravishdosh ifodalagan ish-harakat shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakat bilan bir vaqtda bajariladi. Bunda har ikkala ish-harakat ham odatda takrorlanuvchi, davomli bo'ladi.

2. Shaxsli fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish vaqtini ko'rsatib, payt holini ifodalaydi yoki payt ergash gap-ning kesimi vazifasida keladi.

3. Shaxsli fe'ldan anglashilgan ish-harakatning yuzaga keli-shidagi sababni ko'rsatib, sabab holini ifodalaydi yoki sabab ergash gapning kesimi vazifasida keladi.

4. *-b* affiksli ravishdosh ifodalagan ish-harakat keyingi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning aksini ko'rsatadi, ya'ni ravishdosh ifodalagan ish-harakat bilan keyingi fe'ldan anglashilgan ish-harakat bajarilishi nuqtai nazardan biri ikkinchisiga zid bo'ladi. Shuning uchun bunday hollarda keyingi fe'l ko'pincha bo'lishsiz shaklda qo'llanadi.

5. Ravishdoshning *-b* affiksli shakli bog'lovchilik vazifa-sini ham bajaradi, ya'ni gapda uyushib kelgan fe'llarning ol-dingisi (yoki oldingilari) shu ravishdosh shaklida kelib, uyushiq bo'laklar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi.

-a/-á(-y) affiksi bilan yasalgan ravishdosh quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Yakka holda qo'llanadi. Bunda shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini bildiradi.
2. Qo'shma fe'lning komponenti bo'lib keladi.
3. Ko'pincha takror qo'llanadi. Bunda ham shaxsli fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holati ko'rsatiladi.

-u/-μ (unlidan keyin *-yu/-yμ*) affiksi bilan yasalgan ravishdosh qadimgi yodgorliklarda keng qo'llangan bo'lib, XV asrga qadar ancha aktiv iste'molda bo'lgan, ma'nosi, vazifasi bo'yicha *-a/-á(-y)* affiksli ravishdoshga yaqin turadi.

O'zbek tilida, shu jumladan, turkiy tillardagi mayl va zamon shakllari, mayl va zamon shakllari munosabati munozarali masalalardan hisoblanadi. Turkiy tillardagi mayl va zamon shakllari uchun maxsus affikslarning yo'qligi bunday munozaraga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, mayl ish-harakatning voqe'likka munosabatini ifodalab, fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish xususiyatini, imkoniyatini, ya'ni, real voqelikka, sharoitga bog'langanligini bildiradi. Masalan, *bordi* fe'li ish-harakatning real bajarilganligini, *ishla* fe'li ish-harakatning bajarilish haqidagi buyruqni ifodalaydi.

Grammatik zamon esa ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytga munosabatini ifodalaydi. Demak, mayl kategoriyasi zamon kategoriyasiga nisbatan kengdir. Lekin hamma mayl shakllarida ham grammatik zamon ma'nosi bir xilda mavjud bo'la bermaydi. Masalan, aniqlik maylida har uchala zamon, buyruq-istak va shart maylida esa faqat kelasi zamon shakllari mavjud bo'ladi.

O'zbek tilidagi mayl va zamon shakllari haqida tuslanish tushunchasiz fikr yuritib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan tuslanish tarixi va uning xususiyatiga to'xtalamiz.

«Shajarayi tarokima»da da mayl shakllari quyidagi uch turkumga bo‘linadi: *buyruq-istak, shart-istak, aniqlik*.

Turkiy tillarda fe‘l tuslanishi tarixan sifatdosh (keyinchalik ravishdosh) shakllari asosida, ya’ni mayl va zamon shakllari sifatdosh shakllari asosida shakllangan (buyruq-istak mayli bundan mustasno). Keyinchalik bunday shakllar tarkibidagi sifatdosh affikslarining ayrimlari sezilmas darajaga kelib qolgan. Masalan, *-duq/-dʊk//tuq/-tʊk* sifatdosh affikslari *-di/-dʊ//ti/-tʊ* affiksiga aylangan, ayrimlari esa hozirgi o‘zbek tilida juda kammahsul affiksga aylangan.

To‘la tuslovchilar sifatdosh va ravishdosh shakllariga hamda *-g‘ay/-g‘áy//qay/-káy,-maqda/-mákdá* affiksli shakllariga qo‘shiladi. Qisqargan tuslovchilar *-di/-dʊ//ti/-tʊ* affiksli affiksli, shart shakldagi fe‘llarga va *-g‘u/-gʊ//qu/-kʊ* affiksli shakllarga qo‘shiladi.

Shuni aytish lozimki, to‘la tuslovchilar qadimgi turkiy yodgorliklarda *-di/-dʊ//ti/-tʊ* affiksli shakldan keyin ham qo‘llangan. Masalan, *basdʊmʊz, buzdʊmʊz* (KT). Bu holat «Shajarayi tarokima»da ning dastlabki yodgorliklarida ham qo‘llangan: *Eshittimiz taqʊ bildimiz tedilár* (QR).

SHaxs-son affikslari tarixan kishilik olmoshlarining rivojlanishidan paydo bo‘lgan. Buni M.Koshg‘ariyning ma’lumotidan ham bilsa bo‘ladi. XI asrda o‘g‘uzlar, qipchoqlarning ayrimlari o‘tgan zamon ma’nosini ifodalash uchun – *duq/-dʊk/-tuq/-tʊk* affiksini ishlatib, ular oldidan kishilik olmoshlarini qo‘llash ularning qaysi shaxsda ekanligini bildirgan: *Men ya qurduq (men yoy qurdum), biz ya qurduq, ol keldʊk (u keldi), olar evgá kirdʊk (ular uyga kirdilar)*.

Keyinchalik kishilik olmoshlari fe‘ldan keyin ham keltiriladigan bo‘lgan: *men barduq men (men bordim), sen barduq sen (sen bording)* kabi. Bunda shaxs-son ma’nosini ifodalash uchun kishilik olmoshlarini ikki marta keltirishga zarurat bo‘lmay qolgan. Shuning uchun fe‘l oldidan kelgan kishilik olmoshlari ko‘pincha tushirib qoldiriladigan bo‘lib, keyingisi saqlangan va shaxs-son ko‘rsatkichi sifatida tasavvur qilingan.

Buyruq-istak mayli shakllari. Buyruq-istak mayli shakllarida ham buyruq, ham istak ma'nolari mavjud, ya'ni, I shaxs shakllarida istak, II shaxs shakllarida buyruq, III shaxs shakllarida esa ham istak, ham buyruq ma'nolari mavjud.

«Shajara-yi tarokima»da buyruq-istak mayli ko'p shaklli bo'lib, ular quyidagicha hosil bo'ladi:

I shaxs birlik shakllari:

-(a)yın/-á)yin. Bu shakl barcha davrlarda keng qo'llangan.

-g'alı/-gáli. XVI-XVII asr yodnomalarida uchraydi: Biz seni tutub *bermágáli* tedilár.

Fe'l nisbatlari. «Shajarayi tarokima»da ham fe'l nisbatlarining quyidagi turlari mavjud: *aniqlik, o'zlik, majhul, birgalik, orttirma nisbatlar*.

Ravish. «Shajarayi tarokima»da ham ravish kategoriyasi so'z o'zgartiruvchi affikslar qabul qilmasligi bilan xarakterlanadi. Bu hol ravish turkumining boshqa mustaqil so'z turkumlaridan farqlovchi o'ziga xos belgisini tashkil etadi. Gapda ravishlar boshqa so'zlar bilan bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Ayrim ravishlarning tarkibidagi kelishik affikslari esa o'zining grammatik xususiyatini yo'qotib, so'zning tarkibiy qismiga aylanib qolgan.

Asli o'zbekcha tub ravishlar juda kam sonni tashkil etadi. «Shajara-yi tarokima»da tub so'z sifatida tasavvur qilingan ayrim ravishlar aslida yasama ravish bo'lgan. Masalan, *naru* (nari), *beru* (beri) ravishlari uzoqlikni anglatuvchi *na* va yaqinlikni anglatuvchi *be* so'zlariga qadimgi jo'nalish kelishigi affiksi *-ru* qo'shilishi bilan hosil bo'lgan.

Yordamchi so'z turkumlari. Ko'makchilar. Asarda qo'llanishda bo'lgan ko'makchilar xuddi hozirgi o'zbek tilidagidek, ikki guruhga bo'linadi: a) sof ko'makchilar; b) funktsional ko'makchilar.

Sof ko'makchilar. Eski o'zbek tilida quyidagi sof ko'makchilar iste'molda bo'lgan:

Birla (birlan). Bu ko'makchi dastlab birla formasida qo'llangan bo'lib, qolgan formalari keyinchalik vujudga kelgan. Quyidagi ma'nolarni bildiradi: a) birgalik, b) vosita, d) holat, sabab, f) payt ma'nosini.

Kibi // Bu ko‘makchi o‘xshatish, qiyoslash ma'nolarini ifodalaydi.

Yanglig‘. Bu ko‘makchi ham o‘xshatish, qiyoslash ma'nolarin ifodalaydi.

Funksional ko‘makchilar. Funksional ko‘makchilar ham xuddi hozirgi o‘zbek tilidagidek, uch guruhga bo‘linadi: a) ot-ko‘makchilar; b) ravish-ko‘makchilar; v) fe'l-ko‘makchilar.

Asarda *ald* (Toshni aning aldinda qoydo‘lar), ich, orta, ara, ust, bash, ast, tub kabi ot-ko‘makchilar ishlatilgan.

Ravish-ko‘makchilar asosan chiqish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanib, payt ma'nosini ifodalaydi.

Bog‘lovchilar. Eski o‘zbek tilida ham boglovchilar vazifasiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: a) teng bog‘lovchilar; b) ergashtiruvchi bog‘lovchilar.

Asarda quyidagi biriktiruv bog‘lovchilari ishlatilgan:

-u (-yu,-vu) bog‘lovchisi fors tiliga mansub bo‘lib, eski o‘zbek tilida keng qo‘llangan.

Va bog‘lovchisi arab tiliga mansub bo‘lib, asarda keng qo‘llangan.

Ham bog‘lovchisi uyushgan bo‘laklar yoki qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar oldidan takrorlanib kelgan.

Bobda bayon qilingan materiallar asosida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

– tilning struktura elementlari uzoq o‘tmish davr ichida bir xilda o‘zgarib kelmaydi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot dastavval tilning leksikasiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va shunga ko‘ra tilning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda uning lug‘at tarkibi juda o‘zgaruvchan qismdir;

– «Shajarayi tarokima»da ham hozirgi o‘zbek tilidagidek, birlik son so‘z negiziga muvofiq keladi. Ko‘plik esa maxsus grammatik ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi.

– egalik qushimchalari negizning til oldi va til orqa xususiyatiga hamda negizda lablangan unlilarning qatnashishiga qarab, turli fonetik ko‘rinishlarda qo‘llangan;

– «Shajarayi tarokima»da hozirgi o‘zbek tilidagidek, 6 ta kelishik shakli saqlangan;

– jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi «Shajarayi tarokima»da -qa // -g‘a // -ká // -gá, -a// -á va -na // -ná kabi variantlarga ega;

- chiqish kelishigi *-dan/-dán// -tan/-tán* shakllarida;
- asardagi sifat turkumiga oid soʻzlarning katta qismini yasama sifatlar tashkil qiladi. Yasama sifatlar ikki xil yoʻl bilan: morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya) hosil qilinadi.
- *-lɨgʻ/-lig, -luq/-lugʻ, -lɨk/-lɨk, -lɨ/-li, -lu/-lɨ, -gi/-gʻɨ, -qɨ/-ki* affikslari bilan yasalgan sifatlar bor;
- asar lisoniy tadqiq uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi. “Shajara-yi tarokima” davr xalq jonli tili xususida maʼlum tasavvur hosil qilishimizda eʼtiborli asoslar bera oladi.

III BOB. ASAR TILINING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Qadimgi turkiy til va so‘nggi davrlar tilining sintaktik tuzilishi bilan hozirgi zamon tili sintaktik tuzilishini qiyoslar ekanmiz, o‘zbek tili sintaksisida ham jiddiy o‘zgarishlar bo‘lganini ko‘rish mumkin. Shunisi xarakterliki, sintaksisdagi o‘zgarishlar ko‘pincha morfologiya va leksikada bo‘lgan o‘zgarishlar tufayli ro‘y bergan. Masalan, vosita kelishigining iste‘moldan chiqishi so‘zlarning boshqaruv munosabatini o‘zgartiradi va hol doirasini kengaytiradi.

Sintaksis taraqqiyotidagi ikkinchi omil – boshqa tillarning ta’siridir. Tarixda o‘zbek tiliga ayniqsa fors-tojik tilining ta’siri sezilarli bo‘lgan. Bu tilning ta’siri bilan yangi so‘z birikmalari, ergash gaplar vujudga keldi.

Ma’lumki, so‘z birikmalari ikkiga bo‘linadi: tobe birikmalar, teng birikmalar. Teng birikmalarda so‘zlar o‘zaro teng munosabatga kirishsa, tobe birikmalarda so‘zlar o‘zaro tobe-hokim munosabati orqali bog‘lanadi.

Tobe birikma tarkibidagi bosh va ergash so‘zlar qanday vositalar bilan bog‘lanishiga qarab, uch turga bo‘linadi: boshqaruv, moslashuv, bitishuv.

Boshqaruv munosabatida ergash so‘z bosh so‘zning talabi bilan biror grammatik formada shakllanadi. Boshqaruvning ikki turi mavjud: kelishikli boshqaruv va ko‘makchili boshqaruv. Kelishikli boshqaruvda bosh so‘z va ergash so‘z o‘zaro tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi yordamida bog‘lanadi. Ko‘makchili boshqaruvda bosh so‘z bilan ergash so‘z ko‘makchilar yordamida munosabatga kirishadi.

Moslashuvli birikmada bosh so‘z bilan ergash so‘z shaxs-sonda o‘zaro mos bo‘ladi. Ular o‘zaro qaratqich kelishigi yordamida bog‘lanadi.

Bitishuv munosabatiga kirgan so‘zlar faqat ohang yordami bilan bog‘lanadi. Bunday munosabat sifat bilan ot, son bilan ot, olmosh bilan ot o‘rtasida bo‘ladi.

Izofa ikki otning aniqlovchilik munosabatiga kirishuvdir. Izofa arab va fors tillariga xos bo‘lib, turkiy tillardagi moslashuvli birikmaning o‘zidir. O‘zbek tili

leksikasining juda katta qismini arab va fors soʻzlari tashkil etgani uchun bu tillardan izofiy birikmalar ham juda koʻplab oʻzlashgan. Arab va fors tillaridagi aniqlovchi-aniqlanmishning joylashuvi bilan oʻzbek tilidagi aniqlovchi-aniqlanmishning oʻrinlashuvi oʻrtasida jiddiy farq mavjud. Arab va fors tillarida avval aniqlanmish keyin aniqlovchi kelsa, oʻzbek tilida avval aniqlovchi soʻng aniqlanmish keladi.

Maʼlumki, gap boʻlaklari gapni tashkil qiluvchi soʻz shakllari, birikmalari va boshqa sintaktik birliklarning tarkibiy va maʼno xususiyatlariga koʻra farqlanadi. Bunda tarkibiy xususiyat tushunchasi gap boʻlaklarining ifodalanishi, ularning gapdagi boshqa sintaktik hodisalar bilan bogʻlanishiva sintaktik mavqe tushunchalarini oʻzida birlashtiradi, ular maʼlum bir maʼnoni tashishga xizmat qiladi.

Ega fikr obyektini, nutq predmetini koʻrsatuvchi bosh boʻlakdir. Anʼanaviy tilshunoslikda gapning hokim boʻlagi ega deb eʼtirof etiladi. “Ega ikki sostavli gapning bosh boʻlaklaridan biridir: u hoqim sostavning grammatik markazi, shu sostavdagi boʻlaklarga, shuningdek, tobe sostavdagi bosh boʻlakka – kesimga ham hokimdir. Ega absolyut hokim holatdagi boʻlakdir. U gapdagi fikr, hukm oʻziga qaratilgan predmetning – nutq predmetining nomidir. Ega harakatni bajaruvchi yo qabul qiluvchi shaxsdir yoki kesim ifodalagan holat, yo belgi qarashli predmet”¹.

Keyingi yillarda gapning shakliy tomoni bilan bir qatorda, uning mazmuniy tomonini oʻrganishga ham jiddiy eʼtibor berilmoqda, yaʼni tilshunoslikda mazmuniy sintaksis degan yangi yoʻnalish yuzaga keldi. Bu borada A.Berdialiev, R.Sayfullaeva, A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixoʻjaeva, M.Abuzalova va boshqalarning tadqiqotlarini koʻrsatib oʻtish joiz. Bu tadqiqotlarda gapning bosh boʻlaklari xususida ham yangicha qarashlar paydo boʻldi. Bu, ayniqsa, N.Mahmudov, A.Nurmonov, M.Abuzalovalarning ishlarida oʻz ifodasini topdi. Bu qarash boʻyicha oʻzida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi boʻlak kesimdir. Kesim gapning markaziy boʻlagi

¹ Gʻulomov A., Asqarova M. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tili. Sintaksis. –Toshkent, 1987, – B. 77.

bo'lganligidan butun tavsifi – grammatik kategoriyalari: tasdiq-inkorlik, shaxs, zamon, kommunikativ maqsad va hokazolar kesimga qarab belgilanadi. Kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik rolini o'ynaydi. To'g'ri, kesim haqidagi bunday fikr-mulohazalar an'anaviy tilshunoslikda ham bor. Jumladan, A.G'ulomov shunday yozadi: “Kesim ega bilan o'zaro bog'langan bo'lib, gapning uyushtiruvchi markazlaridan biridir: u hukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini (modallik, zamon va shaxsni) – predikativlikni ko'rsatuvchi eng muhim bo'lak bo'lganligidan gapning mazmunini, strukturasini, xarakterini belgilashda katta rol o'ynaydi, ega nutq predmetini-temani (gapning nima to'g'risida borishinigina) bildiradi, shu haqda nima deyilishini, xabarni, xarakteristikani kesim bildiradi”¹. Olim hatto kesimning gapdagi eng zaruriy bo'lak ekanligini e'tirof etadi. Gapning shakllanishida kesim muhim rol o'ynashini aytadi: “Gapni maydonga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda kattadir: u kommunikatsiyada (aloqa – aralashuv, xabar berishda) asosiy vazifani bajaradi. Gapda kesimning ayrim bo'lak sifatida ifodalanmay qolishi kuchli sezilib turadi. Demak, gap tushunchasi kesim tushunchasi bilan juda zich bog'langandir. Predikativ aloqaning ko'rsatkichlari, odatda, kesimda bo'ladi”².

Aksariyat tadqiqotlarda yodnomalar tili fonetik, leksik, morfologik jihatdan keng o'rganilgan holda, ularning sintaktik qurilishiga kamroq e'tibor qaratildi. Eski o'zbek tilining sintaktik qurilishi G'Abdurahmonov, H.Nazarova, M.Rahmonov, S.Ashirboev kabi olimlarshshg ilmiy tadqiqot ishlaridagina maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lib kelgan³.

3.1. Shaxsi aniq gaplar. Ma'lumki, shaxsi aniq gaplarning kesimi orqali uning grammatik egasini tiklash mumkin. Kesim orqali eganing qaysi shaxs va sonda ekanligi aniq ko'rinadi. Ba'zi adabiyotlarda bunday gaplar kesim orqali ega anglashilib turganligi uchun ikki sostavli gaplarga, ayrimlarida esa to'liqsiz gaplarga ham kiritiladi. Lekin aksariyat adabiyotlarda shaxsi aniq gaplar sifatida e'tirof etiladi. G'Abdurahmonov bu tip gaplarni bir bosh bo'lakli gaplarning tipi sifatida

¹ G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. Sintaksis. –Toshkent, 1987, – B. 84.

² G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. Sintaksis. –Toshkent, 1987, – B. 84.

³ Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996, –B. 22.

qaramaydi. M.Saidova ham bu tipdagi gaplarning bir bosh bo‘lakli gap emasligi haqida xulosa qilgan. Albatta, bunday xulosa gap strukturasiga semantik jihatdan yondashish tufayli yuzaga keladi, lekin gapda *ega* tarkibi qatnashmaganligi ayon, demak, bu hodisaga baho berganda, gapning struktura va ma’no tomonini baravar hisobga oladigan bo‘lsak, uni formal jihatdan kesim markazli bir bosh bo‘lakli gap ekashshgini tan olish lozim bo‘ladi.

Bu tipdagi gaplar adib asarlarida:

I shaxsda ham: *Ikki kundii so‘ngra yana alar xizmatig‘a ettgt.* (57). *Ul hazrat qoshida astag‘ina o‘qudum* (18).

II shaxsda ham: *Xabar bo‘lg‘uncha, salomatlig‘ bila azimat qilib ermishsiz* (114).

III shaxsda ham: *Va sulton sohibqiron ostonasida bo‘lur erdi* (MN 26). *Hajji muborak safarit borib, sayr rasmi bila Hind sari mutavajjih bo‘gdi* (MN 12) keng qo‘llangan. Adib asarlarida shaxsi aniq gaplarning uchinchi shaxsda ko‘p qo‘llanganligini kuzatish mumkin.

Shaxsi noma’lum gaplar. Bunday gaplarga berilgan ta’riflar hech qanday e’tiroz tug’dirmaydi, uning shakllari xususida so‘z yuritilganda, adabiyotlarda ularning bosh bo‘lagi uchinchi shaxs ko‘pliqlikda yoki birgalik nisbatidagi fe’llar bilan ifodalanishi aytiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, A.Bahodirxon asarlarida shaxsi noma’lum gaplarning kesimi fe’lning *-r/ ur* qo‘shimchali sifatli shaklida qo‘llangan va aksariyat gaplarda kesim vazifasida *derlar, ayturlar* fe’llari qatnashgan: *Va qimizni va suzmani va bo‘zapi turkcha ayturlar* (16). *Va ko‘kaltashni turkcha til bila derlar* (15). Asarda *derlar* fe’liga nisbatan, *ayturlar* fe’lining qo‘llanilishi faoldir. X.Nazarova "Bobirnoma" asarida *derlar* fe’lining faol ekanligini aytadi.

3.2. Shaxsi umumlashgan gaplar. Bunday gaplar mazmunan har uchala shaxsga taalluqli bo‘lishi barcha adabiyotlarda aytiladi. Bu tip gaplarda noaniq yoki aytilmagan shaxslar emas, umuman, barcha shaxslarga xos bo‘lgan hayotiy xulosalar, uzoq asrlik hayotiy tajribalar, umumlashgan mulohazalar ifoda qilinadi.

Umuman, ular ikkinchi shaxs birlikda qoʻllanilishi bilan xarakterlanadi: *Odam bila shayton muxolofatin unutm, ota duishanin oʻzungga doʻst tutma* (159).

Shaxssiz gaplar. Bunday gaplar "...bir sostavli gaplarning bir turi boʻlib, ularda ifodalangan ish-harakat yoki biror holat bajaruvchining faol ishtirokisiz yuzaga chiqadi. Bunday gaplarning kesimlari majhul feʼllar, majhul feʼl maʼnosida qoʻllangan aniq feʼllar vositasida ifodalanadi". Undan chekinish hollari ham bor, yaʼni *-sa boʻpur* formanti bilan ham shakllangan: *Borcha salohiyatin ushbu muammosidin ihsos qilsa boʻlur* (95).

Adib asarlaridagi bir bosh boʻlakli gaplar tahlili shuni koʻrsatdiki, bunday gaplar bogʻlangan qoʻshma gaplarning ham, ergashgan qoʻshma gaplarning ham komponenti boʻlib kela olgan. Bu haqda dissertatsiyada batafsil maʼlumot beriladi.

Maʼlumki, gapda obyektiv borliqdagi maʼlum voqea-hodisa haqida axborot beriladi. Nutqiy jarayonda soʻzlovchi maʼlum axborotni yoki istak-xohishni tinglovchiga bayon qilishni, maʼlum voqea-hodisa haqida tinglovchidan soʻrashni, suhbatdoshni maʼlum axborotni bayon qilishga yoki maʼlum harakatni yuzaga chiqarishga daʼvat qilishni maqsad qiladi. Gapda qanday maqsad ifodalanishiga koʻra anʼanaviy tilshunoslikda gaplar 3 guruhga boʻlinadi: 1) darak gaplar, 2) soʻroq gaplar, 3) buyruq gaplar.

Baʼzi tadqiqotlarda gaplarning ifoda maqsadiga koʻra 4 turi ajratiladi: 1) darak gashgar, 2) soʻroq gaplar, 3) buyruq gaplar, 4) istak gaplar. Biz ham oʻz tadqiqotimizda ularni 4 guruhga ajratdik, chunki istak mazmunini ifodalovchi gaplarni buyruq gaplarga kiritish bu tip gaplarning tabiatini ochib berolmaydi.

Darak gaplarning shakliy paradigmasi. Gapni shakllantiruvchi boʻlak kesim boʻlganligi uchun darak gaplarning grammatik xususiyatlari kesim orqali belgilanadi. Shuning uchun ham darak gaplarning, umuman, boshqa gaplarning ham shakliy paradigmasi kesimlarning tuzilishi, uni ifodalagan morfologik shakllarni oʻz ichiga oladi.

Feʼl kesimlarning shakliy paradigmasi. Ularning kesimlari sof feʼl, ravishdosh, sifatdosh shakllarida kela olgan.

A. Bahodirxon asarlarida fe'l kesimlar shakllanish jihatidan hozirgi o'zbek tiliga o'xshash. Ular har uchala shaxs fe'llari bilan ifodalana oladi.

1.1 shaxsdagi fe'llar bilan: ot + fe'l: *O'pub, ko'zumga qo'yub, jongsh ichra er berdim* (129).

2. II shaxsdagi fe'llar bilan: sifat + fe'l: *Xabardor qiltn sayi bexabarroq va fisq-u fasod fujurini man' qilg'an sayi batarroq bo'ldung* (106).

Bu tipdagi gaplar adib asarlarida:

I shaxsda ham: *Ikki kundan so'ngra yana alar xizmatit ettim* (57). Ul hazrat qoshida astag'ina o'qudum (18).

II shaxsda ham: *Xabar bo'lg'uncha, salomatlig' bila azimat qilib ermishsiz* (114).

III shaxsda ham: *Va sulton sohibqiron ostonasida bo'ur erdi* (26). *Hajji muborak safarit borib, sayr rasmi bila Hind sari mutavajjih bo'ldi* (12) keng qo'llangan. Adib asarlarida shaxsi aniq gaplarning uchinchi shaxsda ko'p qo'llanganligini kuzatish mumkin.

Asar tilida hozirgi o'zbek tilida qo'llanmaydigan shakliy vositalar ham uchraydi:

1. -g'ay / -gay// -qay / -kay shakliy vositalari:

– sodda fe'l kesim shaklida: *O'z atvoriigiz tegrasiga yaxshi evrulgaysiz* (118).

– murakkab fe'l kesim shaklida: *Hamisha bandanavoz bo'lg'aysiz* (133).

2. -g'u / -gu , ' -qu / -ku shakliy vositasi: *Bot muyassar bo'ltndin so'ngra alardin ham etkurulgusidir* (10).

Ot kesimlar quyidagicha ifodalangan:

1. Bosh kelishik shaklidagi ot bilan: *Xuroson afozilining doxilidur* (18).

2. Sifat turkumidagi so'z bilan: *Kaydu firibda fusunsoz, makru hiylada saharpardoz* (57).

Otlashgan sifat + to'liqsiz fe'l bilan: *O'z asrining yagonasi erdi* (31).

Sifat + to'liqsiz fe'l bilan: *Turkiy va forsiyda jald erdi* (26).

Darak gaplarning mazmuniy paradigmasi, ma'lumki, darak gaplarda xabar semasi integral sema bo'lib, bir-biridan farqlanuvchi ko'plab semalarni o'zida birlashtiradi. Masalan:

Xabar semasi: *Ul yerdin Seyistong'a bordi (35). Anjumanda bir qasidasin o'qiydur erdi (62).*

Taqsim semasi: *Mamolikni uchovga taqsgsh qildi (189).*

Atalganlik semasi: *Turkistonni va Chin hududin Turg'a berdi (189). Hurmuzkgsh, kichikrak erdi, valiahd qilib, taxtni anga musallam tutti (221).*

Da'vat semasi: *"Zind" kitobin tasnif qilib, elni ul ding'a da'vat qildi (196).*

So'roq gaplarning shakliy paradigmasi. Ma'lumki, so'roq gaplarda so'zlovchi o'zi bayon etgan fikr haqida tinglovchidan ma'lumot olmoqchi bo'ladi yoki undan fikrni tasdiq yoki inkor qilshp uchun javob talab qiladi. Asar tilida ham so'roq gaplar so'roq, yuklamalari, so'roq olmoshlari yordamida hosil qilingan:

1. So'roq yuklamalari bilan: *Daryokim sokindir, suyidin yutsa bo'lurmu, rudkim mutahharindur, zuloli tarkin tutsa bo'purmu? (78).*

2. So'roq olmoshlari bilan.

So'roq gashtarning mazmuniy paradigmasi. A.Bahodirxon asarlarida bir bosh bo'lakli sodda gaplar doirasida ritorik so'roq gaplarga kuzatiladi: *Ne had bila... aning javobin bitisa bo'lg'ay (104).*

Buyruq gaplarning shakliy paradigmasi. A.Bahodirxon asarlarida buyruq gaplarning kesimi buyruq-istak maylidagi fe'l shakllari bilan qo'llanadi:

1. I shaxsda:

a) murakkab fe'l kesim shaklida: *Tomshiy-tomshiy aii qnlay no'sh (179);*

b) sodda fe'l kesim shaklida: *Sening uchun satqun alali (168).*

2. II shaxsda:

a) murakkab fe'l kesim shaklida: *Ahbob, yigitlikni g'animat tutunguz (148).*

b) harakat nomi + farz soʻzi bilan: *Tengri amrini andin ham aqdam koʻrmak farz* (103).

Buyruq gaplarning mazmuniy paradigmasi. Buyruq gaplarning quyidagi maʼno xususiyatlari qayd qilinadi:

1. Buyruq semasi: *Ul naqlni koʻrub, anga yarasha yaroq qilib, soʻrdura kishi yiborsin* (111). *Ul saltanat sipehrining quyoshigʻa. sharaf bahori lolazori uzra gʻazolalar bila anjuman tuzulsun* (105).
2. Tashviq semasi.
3. Maslahat semasi: *Hech vaqt koʻngulni tengri taolo yodidin yufil va musulmonlar dodidin otsh qilmang.*
4. Iltimos semasi: *Va hazarot va makodam bsha, balki soyir •navvob va xuddom bsha xizmatkorligʻtariyqin tutuiguz* (101).

Istak gaplarning shakliy paradigmasi. Istak gaplar soʻzlovchining istak-xohishini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday gaplar soʻzlovchining axborot berish belgisiga koʻra darak gaplar bilan umumiylikni hosil qiladi. Ular shart mayli affiksini olgan feʼl va -lar affiksi vositasida shakllanadi: *Kulliyrak nishonlarni dagʻi qila oltincha hukmdin qoʻrqub, botroq butkarsalar* (131). *Har kun ne miqdor butganin kelib arz qilsalar* (130).

Istak gaplarning mazmuniy paradigmasi. Istak gaplar soʻzlovchining istagini ifodalaganligi uchun ham u kelgusida boʻlishi orzu qilinayotgan voqea-hodisa, belgi-xususiyat haqida axborot beradi. Bunday gaplarning mazmunini istak semasi tashkil etadi: *Bori borch hol bila, har necha ichmoq ishida ehtiyotkorlik, balki taʼxir vojib bililsa* (130). *Dagʻi muhtasib taʼyin qililsakim, elnipamozgʻa targʻib qilsa* (130).

3.3. Bir bosh boʻlakli qoʻshma gaplarning shakl va mazmun xususiyatlari.

Bu bir bosh boʻlakli bogʻlangan, ergashgan qoʻshma gaplar va bogʻlovchisiz qoʻshma gaplardagi shakl va mazmuniy munosabatlaridir.

Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarda toʻgʻri taʼkidlanganidek, turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida gapda ega boʻlagining qatnashishi zarurat emas, u kesim orqali doimo anglashilib turiladi. Gapda

kesimning mavqei egaga nisbatan mustahkam va mazmun doirasi hamda valentlik imkoniyatlari kengdir. Shu tufayli kesim tarkibi kengayib kelgan bir bosh bo‘lakli gaplarni: 1. Ayni subyektli (implitsit) bir bosh bo‘lakli qo‘shma gaplar; 2. Turli subyektli (implitsit) bir bosh bo‘lakli qo‘shma gaplar tarzida ularning ichki tasnifini tavsiya etish joizdir.

Ayni subyektli bir bosh bo‘lakli qo‘shma gaplarda bir nechta kesim uchun bir umumiy subyekt mansub bo‘ladi: *Bu yetti yil hech kishidin hech nima tilamadi va ko‘proq muhtojlarga xazinasidin vajhi maosh muqarrar qildi* (221).

Turli subyektli bir bosh bo‘lakli qo‘shma gap termini ostida ikki xildagi gaplarni tushunishni lozim topdik. Ulardan biri har ikkala komponent uchinchi shaxsda shakllangan bo‘lsa-da, ularning ayni bir shaxs emasligi nazarda tutildi, ikkinchidan, uchinchi shaxs – birinchi shaxs, birinchi shaxs – uchinchi shaxs, ya’ni shaxslar rang-barangligi ham e’tiborga olindi: *Ul xazratg‘a chun ravshan bo‘lub erdi, inkor qila olmadgsh* (254). *Va qatl istid’osi qildi ersa, qatl buyurdi* (231).

Qo‘shma gaplar tarkibidagi gaplarning semantik bog‘lanishida gaplar tarkibidagi oppozitiv vositalar muhim rol o‘ynaydi. Bunday oppozitiv vositalar har ikkala gap tarkibida kelib havola bo‘laklar¹ kabi bir-birini talab etadi, semantik munosabatga kirishadi.

Faktik materiallar asosida oppozitiv munosabatni yuzaga keltiruvchi vositalar quyidagi guruhlariga ajratildi: 1. Oppozitiv leksemalar munosabati; 2. Oppozitiv, so‘z birikmalari munosabati; 3. Sinonimik leksemalar munosabati.

Qo‘shma gaplarning semantik bog‘lanishida zid ma’noli leksemalar muhim o‘rin tutadi: Misol: *Zulm binosin buzdi va adl asosin tuzdi* (212). Mazkur misolda *zulm* va *adl* leksemalari o‘zaro zidlik asosida oppozitiv munosabatga kirishgan, chunki *zulm* semantik jihatdan *adl* leksemasiga zid, qarama-qarshi hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, predikatlar ham zid ma’noli fe’l shakllari bilan ifodalangan: *buzmoq* – biror narsani parchalab, yo‘q qilib tashlamoq, *tuzmoq* – buzilgan, yo‘q bo‘lgan narsani qayta

¹ Mahmudov N., Nurmonov A. va b. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: 1992. – B. 76.

tiklamoq ma'nosini anglatadi. Demak, ushbu gapda ikki tomonlama, murakkab oppozitiv munosabat ifodalanmoqda.

Oppozitiv munosabatlarning ifodalanishida birinchi denotat tarkibida ayrim so'z, ikkinchi denotatdagi so'z birikmasi bilan oppozitsiyalashadi. Misol: *Bu yetti yil hech kishidin hech nima tilamadi va ko'proq muhtojlarga xazinasidin vajhi maosh muqarrar qildi* (221). Misolda predikatlar semantikasi (*tilamadi – maosh muqarrar qildi*) oppozitiv munosabatni aktuallashtirmoqda.

Qo'shma gaplar orasidagi semantik munosabatlarni aktuallashtirishda ayrim yordamchi so'zlarning qo'llanishi ham muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagilar:

Dag'i leksemasi: *Bovujudkim, Samarqandning a'alami ulamosi erdi, she'r va mualshot dag'i moyil erdi* (32). *Dag'i* leksemasi hozirgi o'zbek tilidagi *ham* yordamchi so'zi bajargan amallarni o'zida namoyon qiladi. Demak, bu leksemaning ikkinchi gap tarkibida kelishi ularning semantik bog'lanishini ta'min etgan.

A.Bahodirxon asarlaridagi misollar shuni ko'rsatadiki, bir bosh bo'lakli bog'langan qo'shma gaplarda faqat ayni subyektli qo'shma gaplar amalda bo'lgan. Bunday gaplarning shakliy paradigmasida *va* bog'lovchisining o'mi katta. Ularda quyidagi mazmun munosabatlari ifodalangan.

1. Qiyoslash munosabati. Bunday gaplarda ikki denotativ voqea o'zaro qiyoslanadi. Mana shu qiyoslanish asosida har ikkala denotativ voqea uchun umumiy bo'lgan mazmun namoyon bo'ladi. Masalan: *Haq molin kuydirganni devona derlar va yoruq kunda sham'i kofuriy yoqqanni aqldin begopa derlar* (111-112).

Birinchi denotativ voqea asosiy voqea, ikkinchi denotativ voqea izohlovchi voqea ikkinchi denotativ voqeaga qiyoslangan holda uning ma'nosi yanada chuqurroq, kengroq izohlanmoqda.

2. Payt munosabati. An'anaviy tilshunoslikda *va* bog'lovchisi sodda gaplarni bir-biriga bog'laganda: a) o'zi bog'lagan sodda gaplarda ifoda qilingan ish-harakat, voqea va hodisalarning bir vaqtda

bo'lganini; b) ish-harakatning ketma-ket bo'lganini ifodalashi aytiladi¹.

Payt munosabatli denotatlar tarkibidagi ayrim leksik vositalar semantikasi orqali reallashadi:

Axir leksemasi orqali: *Ko'p kishvar oldi va axir rihlat ko'sin choldi.*

Gah leksemasi orqali: *Va gah g'urbatda alil va g'arib eliga zalil bo'ldum...*

Necha yil: *Va necha yil alar xizmatig'a borib,..*

Bir mahal: *Xoh bir mahalda birov uchun aytsun,..*

3. Sabab-natija mazmuni munosabati. Sabab-natija munosabati haqida gapirar ekan, G'.Abdurahmonov bunday munosabatning yuzaga kelishida faqat bog'lovchilar emas, balki sodda gaplar tarkibidagi ayrim bo'laklarning semantikasi rol o'ynashini aytadi².

Bunday gaplarni o'zaro sintaktik aloqasini ta'minlashda va bog'lovchisi bilan birga *alsho*, *ba'zan* va *lekin* bog'lovchilari ishtirok etishi mumkin.

Ammo bog'lovchisi quyidagi o'rinlarda uchraydi:

1. Zid munosabatli ko'shma gaplarda: *Hushi borida yaxshi abyotlar aytib erdi, ammo junun vaqtida bu baytni ko'p o'qur erdi* (35).

Denotatlar orasidagi zid munosabat *hushi bor – junun, yaxshi abyot – bu bayt* oppozitsiyasi orqali ifodalangan. *Hushi bor* – funktsional bo'lmagan predikativ birikmasi *junun* leksemasi bilan semantik jihatdan o'zaro zid munosabatni yuzaga keltira oladi, ya'ni sof. zidlik hisoblanadi. *Yaxshi abyotlar – bu bayt* so'z birikmalari, to'g'rirog'i, *yaxshi – bu* leksemalari o'zaro zidlik oppozitsiyasini keltirib chiqara olmaydi, lekin *bu* leksemasi mazkur misolda *yomon* leksemasining substituti sifatida kelgan bo'lib, kontekstual jihatdangina shu leksemaning semantikasini o'ziga olgan. Demak, bunday zidlikni nisbiy zidlik deb atash mumkin.

2. Semantik jihatdan zid bo'lmagan qo'shma gaplarda. Bunday gaplarda *ammo* bog'lovchisi semantikasida zidlik tushunchasi bo'lmaydi, balki bog'lovchilik funktsiyasi saqlanib qolgan holda, *ammo* so'zida ta'kid

¹ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980, – B. 426.

² Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. – Toshkent: Fan, 1958, – B. 73.

ma'nosi ham birga anglashiladi, lekin ot va uning substituti oppozitsiyasi ikki gap semantikasining bir-biriga aloqadorligini ta'minlaydi. *Dag'i Istahrni bino qildi, ammo ko'prak avqot anda bo'lur erdi* (185). Shakliy tomondan qaraganda, zidlov bog'lovchisi ishtirok etgan, demak, zidlov munosabat shakllanishi kerak, lekin bu misolda zidlash munosabati yo'q.

Bir o'rinda *va, lekin* bog'lovchilarining birikkan holda kelishi uchraydi. Aslida ham, *lekin* bog'lovchisining mumtoz nasriy asarlarda kam qo'llanganligini G'.Abdurahmonov ham ta'kidlaydi¹. *Ota va abuka otin anga qo'ydtar va lekin ani shahanshoh atadilar* (212). Mazkur misolda denotatlar orasidagi semantik munosabat *ota, abuka – shahanshoh, anga – ani* leksemalari oppozitsiyasi orqali aktuallashtgan. Denotatlar ziddik munosabati orqali o'zaro bog'langan. Bu ziddik *ota, abuka, shahanshoh* leksemalari bilan reallashmoqda, ya'ni uni ota, abuka ham deyishgan, faqat podshoh bo'lgani uchun uni, asosan, shahanshoh deb ataganlar. Demak, ushbu misol asosida "Ota va abuka otin anga qo'ydtar va lekin ani ota va abuka demadilar, shahanshoh dedilar" degan tagfikr mavjud.

Ma'lumki, ergashgan qo'shma gaplarda ikki yoki undan ortiq sodda gaplar o'zaro hokim-tobe munosabati orqali bog'lanadi. Bosh va ergash gap grammatik hamda mazmunan jips bog'lanib, yaxlit birlikni tashkil etadi va umumiy bir fikrni ifodalaydi. A.Bahodirxon asarlarida bir bosh bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarning ham ayni sub'ektlilik, ham turli sub'ektlilik turlari qayd qilinadi.

Asardagi ayni subyektli bir bosh bo'lakli ergashgan qo'shma gaplarni tadqiq etish jarayonida shu narsa alohida ko'zga tashlandiki, bunday gaplar shart ergash gapli qo'shma gaplar doirasida ko'proq xoslangan ekan.

Shart ergash gapli bir bosh bo'lakli qo'shma gaplar. Bunday qo'shma gaplar mazmunini shart munosabati tashkil etadi. Ikki yoki undan ortiq denotativ voqea shartlanganlik munosabatiga kirishadi: *Do'st visolin tilar bo'gsang, oshiq bo'l* (55).

¹ Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi asoslari. – Toshkent: Fan, 1958, – B. 73.

Ergash gapning oʻrni, chegarasi va uning formal shakllanishida oʻziga xoslik ham koʻzga tashlanadi. Maʼlumki, hozirgi oʻzbek tilida avval shart ergash gap, soʻngra bosh gapning kelishi doimiy qonuniyat. Lekin eski oʻzbek tilida, Navoiy asarlarida bosh gapning ergash gapdan oldin kelishi holati ham kuzatiladi: *Zeridastlart nafʼ etkur, agar tilasangki, zabardastlardan zarar koʻrlshgaysen* (117-118). Ushbu gapni quyidagicha transformatsiya qilish mumkin: *Agar zabardastlardan zarar koʻrmaslikni tilasaig, zeridastlart nafʼ yetkur*. Shu toifaga kiruvchi quyidagi gap xarakterlidir: *Desangki, taoming zoe boʻlmagʼayy – yedur; Tilasangki, libosing eskirmagay – kiydur* (51). Shakliy jihatdan olib qaralganda, *desangki, tilasangki* soʻzlari kirish soʻz vazifasida qoʻllangandek koʻrinadi, chunki *zoe boʻlmagʼay, eskirmagay* kelasi zamon feʼl shakllari kesim vazifasida kelgan. Lekin mazmunan olib qaralganda, *desangki, tilasangki* leksemalari ergash gaplar predikatining bir qismi hisoblanadi. Qiyoslang: *taoming zoe boʻpmaty – yedur yoki libosing eskirmagay – kiydur*, deb olsak, mazmun tanqisligi yuzaga keladi, shartlanganlik munosabati toʻla reallashmaydi, Bu gaplarni quyidagicha transformatsiya qilish mumkin: *Taoming zoe boʻlmasin desang, edur yoki libosing eskirmaslikni tshasang, kiydur*. Fikrimizcha, bunday konstruktsiyalar qolipi eski oʻzbek tiliga fors-tojik tilidan oʻzlashgan.

Shart ergash gapning predikati buyruq maylidagi feʼl shakli bilan ifodalanadi. Bosh gap bilan *-ki (-kim)* vositasida shakliy sintagmatik munosabatda boʻladi: *Mazlumgʼa baxshoyish koʻrguzki, zolimdin osoyish koʻrgaysen* (117). Bunday shakliy vosita orqali birikish ham hozirgi oʻzbek tilida kuzatilmaydi. Shart ergash gap bosh gapga *-sa erdi* shakliy vositasida ham birikishi mumkin. Bunda shart voqea taxmin, gumon maʼno ottenkalariga ega boʻladi: *Andoqki, bir oz nima bevuqufroq kishi qoshida oʻqusa erdi, koʻp yaxshilikka oʻtkarur erdi* (19).

Toʻsiqsiz ergash gapli qoʻshma gaplar. Toʻsiqsizlik maʼnolarini ifodalashda ergash gap tarkibidagi *agar, agarchi* leksemalari katta rol oʻynaydi.

Payt ergash gapli qoʻshma gaplar. Maʼlumki, payt ergash gapli qoʻshma gaplarda, asosan, ikki denotativ voqea ifodalanib, ularning biri ikkinchisining ichiga payt

bildiruvchi uzv sifatida kiradi. Shuning uchun ham ikki denotativ voqea o'rtasidagi munosabat payt munosabati sifatida reallashadi va bu munosabat ifodalangan qo'shma gap payt ergash gapli qo'shma gap sifatida baholanadi.

Asarda bunday denotativ voqeali sintaktik tarkibning shakliy va mazmuniy munosabati, asosan, *chun* shakliy vositasi yordami bilan shakllanadi. *Chun* leksemasi eski o'zbek tilida payt, sabab, shart ergash gaplarning bosh gapga bog'lanishini ta'minlovchi vositalardan biri sanalgan: *Chun ta'qib shiddatidin hordilar, ul maeyumu'din sudrab chiqardgshar* (38). *Chun atfol toshidin tuyar erdi, qochib gulxant yuz qo'yar erdi* (87).

Eski o'zbek adabiy tilida forsiy va arabiy so'z va so'z shakllarining qo'llanishi bilan bir qatorda, arabiy va forsiy bog'lovchi va bog'lovchi vositalarining qo'llanishi faollashgan. Bu grammatik vositalar qo'llanishiga ko'ra analitik xarakterga ega bo'lib¹, asosan, gap boshida qo'llangan. *Chun*, *chunki*, *agar*, *agarchi*, *to*, *ki* kabi tobe bog'lovchilar; *va*, *lekin*, *valekin*, *vale*, *ammo* kabi teng bog'lovchilar gapda ma'lum bir sintaktik-semantik munosabatni ifodalash bilan birga eski o'zbek tili adabiy nutqining murakkab uslub shakllarini hosil qilgan. Bu uslubda ijod etish an'anaga aylandi² va ijokorlarning asarlarida takrorlandi.

Alisher Navoiy arab va fors tillaridan lug'aviy unsurlarnigina emas, balki fors tilidagi gap qurilishi qolipini hamda arab tilidagi tayyor so'z birikmalarini ham o'zlashtirgan. Bir qator gaplarni to'g'ridan-to'g'ri qolipi bilan fors tilidan qabul qilgan. Shu tufayli fors tiliga xos bo'lgan *chun* bog'lovchisi bilan boshlangan gaplar o'rganilayotgan manbalar matnida ko'plab uchraydi³. Masalan: *Chun keldi, shayx o'tub erdi* (NM 196). Ko'rinadiki, biz tahlilga tortgan gaplarda *chun* bog'lovchisi, asosan, gaplarning boshida qo'llanadi.

Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida *chun* bog'lovchisining ort mavqeda, bosh gapdan so'ng kelganligi ham kuzatildi: *Dedim, senga safar ne hojat, chun yurur holating yo'qdur* (NM 189). *Chun* bog'lovchili ergash gapning bu tarzda qo'llanishi sintaktik talab bilan emas, balki sof kommunikativ maqsad

¹ Назарова Х.. Особенности синтаксического строя узбекского литературного языка. –Т., Фан. 1979. с.117.

² Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. –Т., Ўқитувчи. 1995. 135-б.

³ Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари.: Филол.фан.докт...дис. –Т., 1990. 26-б.

bilan bog‘liq nutqiy hodisa sanaladi, boshqacha aytganda u inversiya tufayli yuz bergan.

Chun bog‘lovchisi bilan birga ammo, lekin, valek kabi teng bog‘lovchilardan biri yoki bir nechta qator qo‘llangan holatlari uchraydi. Bunda chun bog‘lovchisi boshqa bog‘lovchilarga nisbatan ort pozitsiyani egallaydi. Teng bog‘lovchilarning chun bog‘lovchisi bilan qo‘llanish holati quyidagicha:

Ammo bog‘lovchisi bilan chun bog‘lovchisi kontakt holatda qo‘llanadi: Ammo chun pahlavonni tilab, taklif bila kelturgan ermish, rioyatu hurmat tutmakda mubolag‘a qilib, musohabat tariqi bila maosh qilur ermish (NM 301).

X.Nazarova «Boburnoma» asarini tahlil qilib, asar tilida qo‘shaloq qo‘llangan ammo, lekin, valek kabi bog‘lovchilarni murakkab gap komponentlarini zidlash yo‘li bilan bog‘lashini aytadi¹. Biz ammo, lekin, valek teng bog‘lovchilari chun ergashtiruvchi bog‘lovchisi bilan birga qo‘llanib, ort mavqedagi gapning old mavqedagi gap bilan zidligini emas, balki butunlay yangi mazmundagi jumlaning boshlanishiga ishora qilishini qayd qildik. Fikrimizni keltirilgan jumla ham isbotlaydi. Alar dedilarkim, «Tariqat mashoyixining forsiy kutub va rasoili oz mutolaa qililibdur, ammo chun havasing bor, andoq bo‘lsun». Bunday gaplarda ammo chun bog‘lovchilari kommunikativ funktsiyani ta‘minlashsa, chun bog‘lovchisining ishtiroki qo‘shimcha ravishda ort mavqedagi jumla mazmunini tayin qiladi va ergash gapning sintaktik aloqasini ta‘minlaydi ham. Ammo chun Haq s.t. bu toifaning barakotin boqiy tilar erdi, aning bila mujaddad qildi (NM 305).

Ammo bog‘lovchisi bilan distant holatda: Ammo bu toifaning chun istilohiyatin ham xub bilur erdilar, mundin ham ko‘prak alardin eshitilur erdi (NM 438).

Chun bog‘lovchisining bir predikativ ifoda doirasida distant holatda qo‘llanishi doimiy emas. Biroq mazmunan yaxlit jumlalarda distant holatda uchraydi. Chun bog‘lovchisi distant holatda qo‘llanganda, predikativ ifodalar yana bittaga ortadi, lekin ular orasidagi sintaktik-semantik munosabat har doim saqlanadi. Masalan: Ammo agar muhovirotda gohi so‘zga betaamul javob berur, chun g‘alat kam

¹ X.Nazarova. Особенности синтаксического строя узбекского литературного языка. –Т., Фан. 1979. с.110.

tushar, hech tushmas va muammodin boshqa dag'i nazmlari bor (MN 124). Bunday gaplarda ham ammo bog'lovchisi yangi jumlaning boshlanishiga ishora qilsa, agar bog'lovchisi shartlikni, distant holatda qo'llangan chun bog'lovchisi ham o'zidan keyingi jumlaning shartlik ma'nosini yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, chun bog'lovchisi agarchi bog'lovchisi bilan kontakt holatda valekin chun, ammo chun shaklida qo'llanadi va agarchi bog'lovchisidan anglashiladigan ish-harakatning amalga oshishiga to'sqin bo'la olmaydigan ish-harakatni yuzaga chiqaradi, shuning bilan birga, chun bog'lovchisi o'z bog'lovchilik funktsiyasini saqlab qoladi, ya'ni to'siqsiz ergash gaplarni hosil qilishda ishtirok qiladi. Masalan:

ammo chun: Agarchi ul ajsomg'a hululdin munazzahdur, ammo chun aning bila bu qit'ai lahmi sanavbari orasida nisbati bor, ko'z va xayol va barcha quvoni anga kelturmak kerak va aning hoziri bo'lmoq va ko'ngul eshikida o'lturmoq (NM 276). Yana bir misol: Har oinakim, gadoeki, matlubi bir diram siyim bo'lg'ay, podshohekim, maqsudi bir iqlim bo'lg'ay, agarchi ikkalasining tengri taolog'a ehtiyoji bor, ammo chun matlublarda tafovuti ko'ptur, zaruratdurkim, itoatda tafovut ko'p bo'lg'usidur (MQ 183).

Va lekin chun: Agarchi ko'ngilga iztirob va xotirg'a iztiror yuzlandi va lekin chun bu ish marazning ozlig'ig'a dalolat qilur va sihatning botlig'idin xabar berur erdi, bu dag'i mujibi nishot va boisi inbisot bo'ldi (MQ 208).

lekin chun: Va lekin chun saltanatqa shijoatdin guzir yo'qtur, ko'rungkim, qaysi birimiz sizga hodisa dast bersa, daf'ig'a ko'shish qila olurbiz (TMA 235).

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida chun bog'lovchisi ergashtiruvchi bog'lovchi sifatida jumla tarkibida ma'lum bir mazmuniy munosabatni tayin etish uchun qo'llangan. Bog'lovchi ba'zan jumla tarkibida boshqa turdagi (teng) bog'lovchi va bog'lovchi vositalar bilan kontakt va distant holatda qo'llanganda ham muayyan bir grammatik vazifani bajargan.

Natija ergash gapli qo'shma gaplar. Bunday gaplarning mazmunini natija munosabati tashkil etadi. Ergash gapdagi voqea bosh gapdagi voqeaning natijasini ko'rsatadi. Demak, mazmunan bosh gap ergash gapga tobe bo'ladi.

Bog'lovchilar yordamida tuzilgan qo'shma gaplarni tadqiq etish jarayonida shunday xulosaga kelindiki, bunday gaplarni bog'lashda bog'lovchilar muhim sintaktik vosita bajarmaydi, balki ularning qo'llanishi gapning modalligini ta'minlaydi, xolos. Bog'lovchilarning o'rni muqim emasligi va vazifasining chegaralanganligi shunda ko'rinadiki, gaplar orasiga ularni qo'yish ham, bu vositalar ishtirok etgan gaplardan olib tashlash ham mumkin.

Asardagi misollar ayni bir paytda zidlanish, qiyoslash, shart, sabab-natija, o'xshatish munosabatini ifodalovchi bir bosh bo'lakli bog'lovchisiz qo'shma gaplarni farqlash imkoniyatini berdi.

A.Bahodirxon asarlarida misolida bir bosh bo'lakli gaplarni o'rganish quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1. Sintaksis tilshunoslikning nisbatan kam o'zgaruvchan sohasi hisoblanadi.
2. XV-XVI asrlarda qo'llangan sintaktik qoliplarning hozirda ham qo'llanilishi buning yorqin misolidir. Bu jihatdan asar sintaksisi ham hozirgi o'zbek tili sintaktik xususiyatlariga ko'p jihatlardan o'xshash bo'lishi tabiiydir.
3. Shunga qaramasdan eski o'zbek tili, xususan, A.Bahodirxon asarlarida sintaktik qurilishining bir bosh bo'lakli gaplar misolida o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

- Abulg‘ozi o‘z badiiy asarlarida ona tili boyliklaridan ustalik bilan foydalandi. Muarrix ijodiy merosida o‘zbek adabiy tilining Xorazm lahjasi boyliklaridan unumli foydalanilgan;
- Abulg‘ozi asarlari tilida ham eski o‘zbek adabiy til an‘anasi davom etgan, yuksak darajada takomillashgan;
- Abulg‘ozi asarlari jonli xalq tili asosida yaratilgan, unda, haqiqatan, xalqchilik ruhi bilan sug‘orilgan;
- asarda Xorazm shevalariga oid so‘zlarning borligi bilan birga qadimgi turkiy tilga oid bir qator so‘zlarning ham o‘rinli ishlatilganligini ko‘rish mumkin;
- asarda qarindoshlik, yaqinlik anglatuvchi; inson organizmi va uning muchallarini anglatuvchi; rang bildiruvchi; harakat, holat va nutq fe‘llari kabi qadimgi turkiyga oid so‘zlar ishlatilgan;
- asardagi har bir o‘zlashma tahlili Abulg‘ozixonning so‘z qo‘llash borasida o‘zi ta’kidlagan tamoyilga to‘la amal qilganligini tasdiqlaydi.
- eski o‘zbek adabiy tilning boyishi, taraqqiy etishida ichki imkoniyatlar bilan birga, tashqi manba ham muhim rol o‘ynagan;
- tilning struktura elementlari uzoq o‘tmish davr ichida bir xilda o‘zgarib kelmaydi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot dastavval tilning leksikasiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va shunga ko‘ra tilning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda uning lug‘at tarkibi juda o‘zgaruvchan qismidir;
- «Shajara-yi tarokima»da ham hozirgi o‘zbek tilidagidek, birlik son so‘z negiziga muvofiq keladi. Ko‘plik esa maxsus grammatik ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi.
- egalik qushimchalari negizning til oldi va til orqa xususiyatiga hamda negizda lablangan unlilarning qatnashishiga qarab, turli fonetik ko‘rinishlarda qo‘llangan;
- «Shajara-yi tarokima»da hozirgi o‘zbek tilidagidek, 6 ta kelishik shakli saqlangan;

- jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi «Shajara-yi tarokima»da *-qa // -g‘a // -ká // -gá, -a// -á* va *-na // -ná* kabi variantlarga ega;
- chiqish kelishigi *-dan/-dán// -tan/-tán* shakllarida;
- asardagi sifat turkumiga oid so‘zlarning katta qismini yasama sifatlar tashkil qiladi. Yasama sifatlar ikki xil yo‘l bilan: morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya) hosil qilinadi.
- *-lɨg‘/-lig, -luq/-lug‘, -lɨk/-lɨk, -lɨ/-li, -lu/-lɨ, -gi/-g‘ɨ, -qɨ/-ki* affikslari bilan yasalgan sifatlar bor;
- asar lisoniy tadqiq uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. “Shajara-yi tarokima” davr xalq jonli tili xususida ma’lum tasavvur hosil qilishimizda e’tiborli asoslar bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat. 2008.
2. Abdurahmonov G., Shukurov SH., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
3. Bartholomae Ch. Altiranisches Worterbuch. – Strassburg, 1950. – P. 31.
4. Blochet E. Catalogue des manuscrits turcs de la bibliothèque Nationale de Paris. T. I. Paris. 1932. 232. №141.
5. Desmaisons P. Aboul-Ghâzi Bêhâdour-Khan. Histoire de Mogols et de Tatares..., St.-Pbg. I, 1871 (матни). II. 1874 (таржима).
6. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>
7. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>
8. Pertsch W. Die Handschriften-Verzeichnisse der königlichen Bibliothek zu Berlin. Bd.VI.
9. Rieu Ch. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. London. 1888. 282a.
10. Shajarai tarokima www.ziyouz.com.
11. Verzeichniss der türkischen Handschriften, Berlin. 1889. B. 228. №204.
12. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Алишер Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1981. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент, Ўқитувчи. 1982.
13. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 1973.
14. Абулгази. Шаджарайи турк. Перевод Тредьяковского. (Казань) 1770.
15. Абулғозий. Шаджарайи турк (электрон нусхаси).
16. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. Том I. – Тошкент: Фан, 1983. –Б.385.

17. Алишер Навоий. Мукаммад асарлар тўплами. 20 томлик. 8-том. – Тошкент: Фан, 1991.
18. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар то‘плами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987.
19. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. – Тошкент, 1968. 15-том.
20. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1968.
21. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
22. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М., 1985.
23. Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа. // Туркмения. Л., 1929. – С. 36. – Сочинения. Т. II. Ч.1. – С. 584-594.
24. Баскаков Н.А. мифологические и эпические имена собственные в «Слове о полку Игореве» (К этимологии «Велес» и «Боян») // Восточная филология. Т. 2. – Тбилиси, 1975;
25. Баскаков Н.А. Тюркские элементы в «Слове о полку Игореве». – М.: Наука. 1985. Баскаков Н.А. Тюркизмы-этнонимы в «Слове о полку Игореве» // Советская тюркология. – 1982. – №4. – С. 14-29.
26. Баскаков Н.А. Тюркские языки. – М., 1960.
27. Боровков А. О языке узбекской поэзии // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: 1961. №10. – С. 42-43.
28. Брегель Ю.Э. Харезмские туркмены в веке. – М., 1961.
29. Гусайинзаде А. Параллели огузских этнонимов в современной топонимии Азербайджанской ССР // Советская тюркология. №4,1977. – С. 47-51.
30. Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. I. История.
31. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969.
32. Захиди А. Слова тюркского происхождения в современном арабском языке. АКД. Баку, 1967.
33. Ислом. Справочник. – Тошкент, 1989.

34. Исмоҳов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. – Тошкент, Ўқитувчи. 1995.
35. Каль Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной библиотеки. – Ташкент, 1889.– № 801.
36. Каримов Қ. Абулғозининг тилга оид баъзи қайдлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. №4. – Б.53-56.
37. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.. – Л., 1980.
38. Кононов Л. П. Родословный туркмен, сочинение Абу-л-Газн, хана хивинского. -М.-Л., 1958.
39. Кудачина Н. К этимологии слова «бай» в алтайском языке // Советская тюркология. 1980. №5.
40. Лекции И.Н.Березина, записанные студентом В.Игнатьевым в 1866 г., 4-я лекция. / Архив востоковедов ЛО ИНА АН СССР, разряд III, опись 1. – № 31.
41. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999.
42. Малов С.Е. Енисейская письменность тюрков. –М.-Л., 1952.
43. Мамадалиева Н. “Шажараи турк”даги *бош ва яхши* сўзларининг маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002. №2. – Б. 49-53.
44. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 2. 1938. – С. 28-38. Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. I. История. / Ред. А.Н. Кононова. – Москва: Наука. 1965.
45. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1960.
46. Мир Жалолиддин Каззоий. Номаи бостон. Жилди 1. – Техрон: САМТ. 1379 ҳ.ш.
47. Мухторов Ж., Санакулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи. 1995.

48. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
49. Наджип Э. Тюркский язык делийского солтана XIV века // Советская тюркология. – 1982. – №2.
50. Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2003.
51. Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983.
52. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I. ч. 2. – СПб. 1911. – С. 1122-1123.
53. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Университет, 2001.
54. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т. I. Кн.1. Перевод с персидского Л. А. Хетгурова. – М., 1952. – С. 89.
55. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Том I. Кн.1. Перевод с персидского Л. А. Хетгурова. – М., 1952.
56. Родословное древо тюрков. Сочинение Абуль-Гази хана хивинского. Перевод и предисловие Г.С.Саблукова. Казань, 1906.
57. Самойлович А.Н. Богатый и бедный в тюркских языках.//Известия АНСССР отд. общ. наук. 1936. №4. – С. 31-32.
58. Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа туркменского» Абульгази-хана // ДАН-В. 1927. Самойлович А.Н. По поводу издания Н.П.Остроумовым «Светоч ислама» // ЗВОРАО, XVIII. – С.2-4.
59. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Том 2. – М.: Наука, 1978.
60. Словарь русского языка. В четырех томах. Издание третье. Том I. – М.: Русский язык, 1985.
61. Собрание восточных Рукописей АН Республики Узбекистан (СВР). История. / Составители: Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1988.

62. Собрание восточных Рукописей АН Республики Узбекистан (СВР). История. / Составители: Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1988.
63. Туманский А.Г. Абуль-Гази-Бохадур-хан, Родословная туркмен, Ашхабад, 1897 (по ташкентской рукописи).
64. Турдибеков М. “Шажарайи турк” тилидаги баъзи гидронимларга доир мулохазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. №5. –Б.50-54.
65. Турдибеков М. Абулғозий Баҳодирхоннинг “Шажарайи турк” асаридаги баъзи ойконимлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1997. №2. – Б.63-66.
66. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи. 1994.
67. Ученых записках ИВ АН СССР. VI, 1953.
68. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент:, 1965.
69. Фозилов Э.И. XIV аср Хоразм ёдномалари. – Тошкент, 1973.
70. Шажарайи тарокима. www.ziyouz.com.
71. Шажарайи тарокима. – Истанбул. 1937.
72. Шамсуддин бин Халаф Табризий. Бурҳони қотеъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 ҳ.ш.
73. Шермуҳаммад мироб ал-мутахаллис би-л-Мунис ва Муҳаммад Ризо мироб ал-мутахаллис би-л-Огаҳий. Фирдавсу-л-иқбол. Юрий Бригелнинг саъй ва эҳтимоми била таҳрир-у табъ қилинди. – Лейдин, 1988.
74. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка.– М.-Л., 1962.
75. Гиёсиддин Рампурий. Гиёсул-л-луғот. Лакҳнау. 1886.